

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI


TARIX KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISH


MAVZU: "TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI"

5220200-«Tarix» ta'lim yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun

Tarix ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi: Narzullayeva
Shahodat



Ilmiy rahbar: o'qituvchi
Murodova D.Sh.



Buxoro-2014

Buxoro davlat universiteti Tarix fakulteti “Tarix” ta’lim yo’nalishi
4 “B” guruh talabasi Narzullayeva Shahodatning “Temuriylar davri
tarixshunosligi” mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Narzullayeva Shahodatning bitiruv malakaviy ishi “Temuriylar davri tarixshunosligi” deb nomlanib, bu bitiruv malakaviy ishida kirish, to’rt reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati, mundarijadan iborat. “Temuriylar davri tarixshunosligi” deb nomlangan bitiruv malakaviy ishi orqali talaba O’rta Osiyo va Yevropa tarixida chuqur iz qoldirgan, Amir Temur siymosini yoritib bergan. Temur davri tarixchilarining ilmiy asarlari bitiruv malakaviy ishida yoritib berilgan. Jumladan, Yevropa olimlarining Temur davriga oid ilmiy asarlarini yoritib bergan. Ilmiy ishi davomida Prezident I.A.Karimovning asarlaridan keng foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishi maqsad va vazifalarni mavzuning o’rganilish ahamiyati, bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi keng yoritib berilgan. Keyingi bob va paragraflar rejaga asosan to’liq va atroflicha yotib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining rejalari ham mavzuga mos ravishda tanlangan bo’lib, rejalarni yoritish jarayonida turli adabiyotlar va internet saytlaridan o’rinli foydalanilgan. Talaba bitiruv malakaviy ishida o’z oldiga qo’ygan maqsadiga erishgan deb hisoblayman.



Buxoro viloyati Shofirkon tuman Sanoat va
Milliy hunarmandchilik kasb-hunar kolleji
tarix fani o’qituvchisi
Majitova Maxbuba Baxronovna

Mavzu :Temuriylar davri tarixshunosligi

Reja:

Kirish

1. Amir Temurning ilm – fan ahliga g`amxo`rligi
2. Amir Temur tarixi zamondoshlari nigohida
3. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida muhim tarixiy manba sifatida
4. Rui Gonzales de Klavixoning” Samarqandga –Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi” (1403 – 1406yillar) asarida Amir Temur talqini

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

“Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o`z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarixini bilishga, o`zligi anglashga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy hol. Odamzod borki, avlod – ajdodi kimligini, nasl – nasabini, o`zi tug`ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski vatanining tarixini bilishni istaydi”.¹

Hozir O`zbekiston deb ataluvchi xudud, yani bizning vatanimiz nafaqat sharq balki umumjaxon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butun jaxon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari manashu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko`rku fayzini, mahobatini yo`qotmagan osori atiqalarimiz qadim – qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me`morchilik va shaharsozlik san`ati yuksak bo`lganidan dalolat beradi. “Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20mingdan ortiq qo`lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san`at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astranomiya, me`morchilik, dehqonchilikka oid o`n minglab asarlar bizning beqiyos ma`naviy boyligimiz, iftixorimizdir”.²

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik bizga boy va betakror o`tmishimizni, tarixiy va madaniy merosimizni xolisona va ilmiy o`rganishga imkoniyat yaratdi. Sobiq sho`ro mafkurasi xalqimiz yurtimiz tarixining ko`pgina zalvorli muammolarini o`z talablari doirasida, tarixiy haqiqatdan chekingan holda, buyuk davlatchilik shovinizmi g`oyalari asosida talqin qilishga majbur qildi. Ana shunday g`ayri ilmiy talqin etilgan masalalardan biri Amir Temur va uning o`zbek davlatchiligida, jaxon tarixida tutgan o`rni va tarixiy xizmatlarining hukumron mafkura izmiga bo`ysundirilgan holda talqin etilishidir. Amir Temur – tarixda eng buyuk shaxslardan biri. Ajablanarlisi shundaki, XIV asrning eng yorqin va mo`tabar zotining buyukligi keyinchalik har turli afsonalari, uydirmalar girdobida qolib ketdi. Amir Temurning yirik davlat arbobi o`rta asr islohotchisi, jasur adolatpesha, fan va madaniyat homiysi sifatidagi siymosi har turli mafkuraviy

¹ Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T, 1998, 1-bet.

² Islom Karimov Adolatli jamiyat sari T, 1998, 32-bet

ta'surotlarga, kamsitilgan va adolatsiz baholarga qaramay, asirlar osha yashab keldi.

“Temuriylar davri tarixshunosligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimni boshlar ekanman, bu mavzu bugun tarix fani va mustaqil O'zbekistonimizning ma'naviy salohiyati uchun naqadar dolzarb ekanligini angladim. Zero, ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelgan tarixiy manbalar tarix guvohligini o'zida aks etgan o'tmish elchilaridir.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: “Ota – bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi. Chunki, o'zingizga ma'lum, sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura mahfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga brogan ediki, o'z tariximizni o'zimiz yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik”.¹

Mustabid sho'ro tuzumi davrida sohibqironning shaxsiga, faoliyatiga bir yoqlama baho berildi, unga tuhmat – bo'hton toshlari yog'ildi. Bu adolatsizlik yurtboshimiz asarlarida qayta – qayta takidlanadi. Jumladan, I.A.Karimov yozadi “ sobiq mustabid davrida yaratilgan tarixiy asarlarda Amir Temur shaxsi va faoliyati adolatsizlik bilan bir yoqlama baho berildi... Ana shunday noto'g'ri va g'ayri ilmiy qarashlariga tanqidiy baho berib, Amir Temurga nisbatan tarixiy adolatni qaror toptirish bugungi Temurshunoslikning muhim vazifalaridan biridir”.²

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Ulug' bobomiz haqidagi adabiyotlarni avvalo, tarixiy va badiiy hamda chuqur ilmiy tadqiqotlarga ajratish mumkin. O'tgan 600 yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Evropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida 900 ga yaqin ekanligini yurtboshimiz zo'r qoniqish bilan ta'kidlagan edi.³ Sohibqiron tavalludining 660 yilligi nishonlangan 1996 yilda xorijda yaratilgan asarlarning bibliografiyasi berilgan. Amerikalik tarixchi J.Vudsning “Temuriylar tarixshunosligining yuksalishi” asarida Amir Temur va Temuriylar haqida yozilgan ko'pgina asarlar, jumladan, Nizomiddin Shomiy, Hofiz Abro', Sharafuddin Ali Yazdiy, M.Natanziy va boshqalarning asarlari tahlil qilingan.¹

Amir Temur haqida yaratilgan asarlar orasida arab olimlarining risolalari ko'pchilikni tashkil qiladi.

¹ Islom Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T, 1998, 2-bet.

² Islom Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar 5-jild, T, 1997, 185-bet.

³ Islom Karimov. Amir Temur haqida so'z. T, 1996, 6-bet.

¹ D.Obidjonova Sohibqiron davrining xorijiy tadqiqotchilari. “Fan va turmush” 1995, //4, 22bet.

Badriddin al – Ayniy o`zining “Iqd al – Juman”, Al – Qashashandiy “Subh al – A`shav”, Al – Maqriziyning “kitob al – Suluk”, Ibn Kazi “Adh Dxail ala tarix al – alom, Ibn Hotab, al – Asqaloniy “Inbaa al – G`umr”, Ibn Iyos “Tarix bi Ibn Xoldun Barixlathu G`arban va Sharqan; Ibn Do`qmoq va boshqa muarrixlar asarlarida Temur va Temuriylar davri tarixi yoritilgan.

Arab muarrixlari orasida Ibn Arabshohning “Ajoyib al – maqdurfi tarixi taymur”, “Temur tarixida taqdir ajoyibotlari” nomli asari ham Temuriylar davri tarixshunosligining eng yorqin namunasi.

Bitiruv Malakaviy Ishining maqsad va vazifalari. Jamiyatning har bir a`zosi o`z o`tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo`ldan urish, har xil aqidalar ta`siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o`rgatadi, irodasini mustahkamlaydi.

Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo`lib, mustaqil O`zbekistonimizning nurli kelajagi uchun yonib – yashaydigan fidokor tarixchi bo`lish, tarixiy haqiqatni xolisona yoritib, ilmiy manbalar aholi Amir Temur dahosini kelgusi avlodlarga etkazish biz talaba yoshlarning eng ezgu maqsadimiz. Bitiruv malakaviy ishimda men bo`ljak tarixchi sifatida o`z davrining tarix haqiqatlari yoritilgan manbaalarni o`rganib, ularda yoritilgan voqea – hodisalarni holisona tahlil etishni ilmiy tadqiqot ishining asosiy maqsadi, deb bilaman.

Zero, Prezidentimiz Islom karimov 1996 yil 24-oktyabrda poytaxtimizda Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag`ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyadagi ma`ruzasida bu borada shunday fikr bildirgan edilar: “Bizning bugungi asosiy vazifamiz shundan iboratki, asrlar davomida dunyoning turli mamlakatlarida Amir Temur merosiga bag`ishlab yirik ilmiy markazlarda haqiqatgo`y olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlarni chuqur o`rganishimiz sizlarning kitoblaringizni tarjima qilishimiz va xalqimizga, kelgusi avlodimizga tarixni xolis va haqqoniy o`rgatuvchi darsliklar sifatida bizning faxru iftixorimiz sifatida taqdim qilishimiz kerak.

Ishonchim komilki, sizlar va sizlardan oldin o`tgan temurshunos do`stlarimizning ilmiy jasorati, mashaqqatli mehnati bugun biz uchun eng katta boylikdir”.¹ Amir Temur shaxsini idrok etish tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o`zligimizni aglash demakdir. Amir Temurni ulug`lash – tarix qa`riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

¹ Amir Temur jahon tarixida. T., 2001, 28-bet

Zero, o`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q.²

Bitiruv Malakaviy ishning tuzulishi. Kirish, 4ta reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Amir Temurning ilm – fan ahliga g`amxo`rligi

² Islom.Karimov.Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch.T,2008,4-bet.

Vatanimiz O`zbekiston nafaqat Sharq,balki umumjahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biridir.O`zbekiston hududida minglab yillar davomida yuksak madaniyat ,ilm-fan gullab yashnadi.Bu qadimiy va tabarruk zamindan buyuk allomalar,fozilu fuzalolar,olimu ulamolar,siyosatchilar etishib chiqdilar.

Yurtboshimiz Islom karimov ta`kidlaganlaridek; “Hozir O`zbekiston deb ataluvchi hudud,ya`ni bizning Vatanimiz ...umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butun jahon tan oldi “.¹

Dunyoviy va diniy ilimlarning ko`pchiligi ana shu zaminda sayqal topdi.Ayniqsa,islom dinining ko`p sohalari turon zaminida ildiz otib,fan tariqasida shakillandi.Masalan; hadis ilmidagi olti buyuk muhaddislardan to`rt nafari Turon tuprogidan.Islom dinining falsafiy qarashlari – tasavvuf ilmining asoschilari bizning vatandoshlar.Shariatning huquqiy tomonlarini o`rnatuvchi fiqh ilmi ham bizda shakillangan.Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ana shunday poydevor sohibqiron Amir Temur davriga kelib yanada rivojlandi va yangi bosqichga ko`tarildi.U vujudga keltirgan saltanatda yuzaga kelgan barqarorlik nafaqat iqtisodiy va siyosiy yuksalish,shu bilan birga ilm-fan ravnaqiga ham mustahkam zamin yaratdi. Amir Temur davridan boshlab Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan,san`at va adabiyot rivoj topa boshladi.

Amir Temur ulkan va qudratli saltanat barpo etib,ma`naviy madaniyatning yuksalishi,gullab – yashnashi o`tmish davrlar ajoyib analarining yangi tarixiy vaziyatda qayta tiklanishi uchun sharoit yaratdi. Amir Temur ijtimoiy faoliyatining sermahsul natijalari,ayniqsa,madaniyat sohasida yaqqol namoyon bo`ldi.

XIV-XVI asirlardagi eng yuksak aqliy va ijodiy muvaffaqiyatlar timsoli sifatida fan,adabiyot,miniatur,amaliy,musiq va tomosha san`atlari ravnaq topdi.

Ilm-fan va madaniyat aksari musulmon olamida yangidan gurkirab rivojlanishi. Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog`liqdir. O`sha davrda Markaziy Osiyoda ilmiy va adabiyot faoliyat uchun qulay sharoit yaratilganligi tufayli ko`plab olimlar bu erda xotirjam yashab,barakali ijod qildilar.²

Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fanga bo`lgan qiziqishning o`sishi ma`naviy madaniyatning umumiy yuksalishiga,ishlab chiqarish va hunarmandchilik o`sishiga yordam berdi. Ayni vaqtda irrigatsiya,shaharsozlik,me`morchilikning ildan rivojlanishi fandagi turli yo`nalishlarning yuksalishiga turtki bo`ldi. Bundan tashqari harqanday jamiyat va davlat taraqqiyoti va kelajagini fan va madaniyat ravnaqisiz tasavvur qilib bo`lmasligini Amir Temur yaxshi tushungan. Shuningdek iste`dot egalari maxsus

¹ I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.T.,1998,3-bet.

² Amir Temur jahon tarixida.T.,2000,197-bet.

va doimiy etiborga muhtoj va moyiq bo`lishlari, noyob qobiliyat egalarini muhofaza qilish, ijodlari uchun sharoit yaratish, turmushlarini ta`minlash zarurligini ham u to`g`ri anglagan.¹¹

U olimu fozillar o`z maslakhatlari va dunyo qarashlari yuzasidan jamiyat va davlat taraqqiyoti, zamonaviy ahvoli xususida boshqa ijtimoiy tabaqalarga nisbatan ko`proq bosh qotirishlari va bu orqali tegishli tajriba va bilimlarga ega bo`lib borishlarini yodda tutgan. Shu sabab ham dunyoning qaysi bir mamlakati va shahariga bormasin olimu fozillarni bir erga yig`ib, ular bilan uzoq suhbatlashish, ularning fikrini tinglash, bahslashish ishini kanda qilmagan. Fikrimizcha, Amir Temurning fan va madaniyat sohasida yuritgan siyosatini xuddi mana shu omillar orqali baholash darkor.

Shu ma`noda Ibn Arab shohning quyidagi bayoni e`tiborli; “Amir Temur olimlarga mehribon bo`lib, sayyidu mariorlarni o`ziga yaqin tutardi. Ulamolar va fozillarga to`la – to`kis izzat ko`rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam ko`rardi. Ularning har birini o`z martabasiga qo`yib, o`z ikromi hurmatini unga izhor etardi. Ularga nisbatan o`z muruvvati bisotini yoyardiki, bu muruvvati uning haybati bilan aralash edi. Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bu bahsda insofu hashamat bo`lardi”.²

Biroq shu bilan birga mazkur olimlarni yuzaga chiqarish, ular imkoniyatlaridan to`la foydalanishi uchun yana bir muhim omil mavjud bo`lishini ham Sohibqiron yaxshi bilardi. Iqtisodiy va siyosiy jihatlardan qudratli davlatgina tilga olgan omillarni yuzaga chiqarish imkonini berish mumkin. O`z o`rnida javob tariqasida, ilm va madaniyat rivoji davlat, qudratiga qudrat, obro`sigacha obro` qo`shgan.

Shu ma`noda Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan yillarni eslaylik.

Chingiziyalar hukumronligi davrida taraqqiyotda ancha oqsab qolgan Turkiston XIV asrning o`rtalariga kelib siyosiy boshboshdoqlik ta`sirida yanada munkillab qolgan edi. Taxtga chiqishi bilan Amir Temur chiqargan dastlabki farmonlarda ana shu ahvolni to`g`rilash niyati borligi yaqqol sezilib turadi. Chunonchi, uning buyrug`iga ko`ra oily o`quv yurtlari bo`lmish madrasalar va ularning o`quvchilarini moddiy jihatdan ta`minlab stipendialari oshirilishi ko`zda tutilgan. Bu borada Mu`iniddin Natanziy shunday yozadi; “Faqirlar va ilm toliblari nafaqalari vaqor mulklari va madrasalarga har birining holiga yarasha va voqif shartiga muvofiq belgilangan. Ana shunday vaqorlarga hech kim va mutlaqo soliq solinmagan. Amir Temur o`z vazirlariga vaqor mulklaridan biron tanga mening

¹ Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T, 2000, 197-bet.

² Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 2-jild, 1997, 69-bet.

xazinamga tushmasin deya ko`rsatma bergandi. Sohibqiron ilm, hikmat ahli va donishmand kishilar bilan tezda kirishib ketardi.”¹

Ilm va madaniyatga bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Bu yo`ldan uning avlodlari ham yurdilar. Natijada Temuriylar zamonida ko`plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ular o`qish va o`qitish uchun dunyoning turli burchaklaridan etuk olimlar taklif etildi, jalb qilindi.

Sho`ro davri manbalarida Amir Temurning Samarqandga boshqa yurtlardan ijodkoru hunarmandlarni “haydab kelgani” haqida ayuhannos solinadi. Vaholangki, birinchidan, ayniqsa, Chingizxon bosqini yillari va keyinchalik ham mamlakatimizdagi, umuman mintaqadagi juda ko`plab olimlar, shoirlar, hunarmandlar, san`atkorlar jon saqlash niyatida Kichik Osiyo, arab o`lkalari, Hindiston tomonlarga qochib ketganlar. Masalan, Sayfi Farg`oniy (XIII asrning ikkinchi yarmi XIV asrning birinchi yarmi) Kichik Osiyoga, Sayfi Saroiy (XIV) asr Misrga jo`nab ketishga majbur bo`lganlar. Asli Buxorolik Muhammad Avfiy (XIII asrning so`ngi choragi – XIV asrning birinchi yarmi) ham Chingizxon xavfidan Shimoliy Hindistonga ketishga majbur bo`lgan. Yurtimiz madaniy taraqqiyotiga katta zarba bo`lgan holatlardan biri shunda ediki, turli mavqedagi sulolalar, boy – badavlat oila va shaxslar mo`g`illar dastidan vatanni tark etarkanlar, o`zlari bilan saroy ahillari, davralari, jumladan, olimlar, shoirlar, san`atkorlar, hunarmandlarni hamolib ketganlar. Ikkinchi tomondan, ilm va madaniyat namoyondalari o`z homiylari imkoniyatlaridan foydalanib jon saqlab qolganlar.

Bunday “ko`chish“ keng ravishda sodir bo`lganligi haqida malumotlar tarixiy manbaalarda qayd etiladi. Masalan, “Tarixi Firishta” asarida keltirilishicha, Shimoliy Hindistonda Hukumronlik qilgan turkiy sulolalardan birining namoyandasi G`iyosiddin Balban (1266-1287) zamonida u erda turli mamlakatlardan, jumladan turkistondan ham mo`g`illar siquvidan qochib berib ko`plab olimlar, shoirlar, hunarmandlar o`rnashganki, hukumdor ularga alohida-alohida mahallalardan joy bergan. Shu tariqa Dehlining o`zida Xorazimliklar, Samarqandliklar, Qashg`rliklar mahallalari bunyod bo`lgan.

Gapning qisqasi, Chingiziylar davrida ta`qibu siquvlar, siyosiy ostin-ustunliklar natijasida ilm va madaniyat nuqtai nazaridan huvillab qolgan Turkiston Amir Temur zamoniga kelib yana jonlanish imkonini qo`lga kiritdi. Ta`bir joiz bo`lsa, Sohibqiron ilgari sodir bo`lgan nohaqlikni tiklashga harakat qilgan. Bunda u, eng avvalo, mahalliy ilm fan va madaniyat vakillariga suyangani aniq, ya`ni ilmu madaniyat rivoji uchun shart – sharoit yaratgan, siyosiy barqarorlikga erishgan. Natijada turli mamlakatlardagi turkistonliklar o`z yurtlariga qayta boshlaganlar. Ular orasida qachonlardir ota – bobolari Shimoliy Hindiston, arab o`lkalari va

¹ B.Axmedov. O`zbekiston Xalqlari tarixi manbaalari. T, 1994, 153-bet.

boshqa yurtlarga borib o`rnashgan avlodlar ham bo`lganiga shubha qilmasaham bo`ladi. Ular asosan, Sohibqiron lashkarlari bilan qaytgan bo`lishlari kerak. Ikkinchi tomondan, Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz, Xirotda shaharlarining madaniyat va ilm markaziga aylanishi, bu erlarda boshqa joylardan ko`ra ijod uchun sharoitning yaxshiligi o`z – o`zidan horijiy olimlar, shoirlar, san`atkorlarning bu yoqlarga oqib kelishi sabab bo`lgan. Buning isboti sifatida Ulug`bek akademiyasida faoliyat ko`rsatgan eronlik, rumlik olimlarni eslaylik. Masalan, Ulug`bek rasadxonasi, uning ilmiy maktabida izchil faoliyat ko`rsatgan eronlik mashhur olim G`iyosiddin Koshiy ana shunday olimlardan biri edi. Uning o`zi, Eronda yulduzlar ilmiga e`tibor susayib, aksincha, Samarqandda bu borada barcha sharoit borligi sabab ham Movarounnahrda yuzlandim deb, yozgandi.¹

Eng muhimi, qo`hna Vatanimiz faqatgina Amir Temur va Temuriylar davrida ilmu madaniyat sohasida topilgan yurt bo`lmay, balki to o`sha zamonlarga qadar ham dunyoga ziyo nurlarini tarqatib kelayotgan qo`hna va mo`tabar mamlakat hisoblanganligini biz yaxshi bilamiz.

Fan va madaniyatning gullab yashnashi temuriylar namoyondalarining barchalari, hoh taxtga chiqqani bo`lsin, hoh yo`q, keng bilim egalari bo`lganliklari orqasidan hamdir. Ular o`z ona tillaridan tashqari fors, arab tillarini mukammal bilar, tarix, astronomiya, matematika, tibbiyot, shariyat, husnixat, memorchilik, diniy ilmlar borasida katta salohiyat sohibi edilar. Ular kitobga, yani bilim va bilish manbaiga katta hurmat bilan qaraganlar. Shuning uchun ham Amir Temur, Shohruh, Boysung`ur, Ulug`bek, Pir Muhammad, Xalil Sulton, Sulton Husayn, Badiuzzamon, Fariuddin, Husayn Mirzo kabi podshohu shaxzodalarning boy kutubxonalarini kishilar og`ziga tushgan, ulardan ko`pchilik bahramand bo`lgan.

Amir Temur, Shohruh, Ulug`bek, Sulton Husayn, Boyqaro, Qutlug` Turkon Og`o, Gavharshodbegim kabi temuriy hukumdorlar va malikalar hamda temuriylar xizmatida bo`lgan bir qator amirlar tomonidan Samarqand, Buxoro, G`ijduvon, Marv, Xirotda, Yazd, Balx, Mashhad, Sheroz va boshqa shaharlarda o`nlab madrasalar barpo etildi. Xalil Sulton, Mirzo Ulug`bek, Iskandar Mirzo, Boysung`ur Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuzzamon Mirzo, Shox G`arib Mirzo, Fariuddin Husayn Mirzo, Muhammad Husayn Mirzo, Sulton Muhsin Mirzo, Mo`min Mirzo, Muzaffar Husayn Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo va boshqa Temuriy namoyandalar nozik didli shoir ham bo`lib, turkiy va forsiy tilda she`r bitganlar. Va tabiiy ravishda katta – kichik shoirlarga homiylik qilganlar, iste`dodli qalamkashlarni parvarish aylaganlar.¹ Shuning uchun ham Temuriylar davri o`zbek va fors adabiyoti rivojida muhim bosqich hisoblanadi. O`zbek va umuman Turkiy tilli adabiyot ravnaqida ulkan hissa kasb etgan Navoiy, Jomiy,

¹ Aliqulov.H.Amir Temur ilm – fan homiysi.Muloqot,1996//4,22-bet.

¹ A.Ziyyoyev. Temuriylar davri Hindiston tarixnavisligi.O`zbekistonda ijtimoiy fanlar.//7-10,1996,172-180betlar.

Sakkokiy, Lutfiy, Atoiy kabi turkiy zabon shoirlar, Burundiq Xo`jandiy, Ismat Buxoriy, Xumoyun Isfaroiniy, Badriddin Chig`atoiy, Riyoziy Samarqandiy, Halokiy kabi forsiy zabon shoirlar hamda Eron, Ozarbayjon, Xuroson, Kichik Osiyoda ijod qilgan o`nlab nazm ustalari xuddi shu davrda yashaganlar u yoki bu ma`noda Temuriylar himmatidan bahramand bo`lganlar.

Abdulhay, Pirahmad Bog`Ishamoij, Muhammad halimiy Sulton ali Bovardiy, Shahobiddin Abdullo, Zahiriddin Asg`ar, Kamoliddin Behzod kabi naqqoshlar ham, Ahmad Rumi, Shomiy, Boysung`uriy, Hoji Abdulqodir, Muhammad Badriddin, Muhammad Kotib, Sulton ali mashhadiy, Abduhalim Kotib kabi o`nlab hattotlar ham Amir Temur va Temuriylar davrida kamolot cho`qqisiga chiqqanlar. Husnixat borasida Temuriylar ham nom chiqqanlar. Chunonchi, Shoxruhning o`g`illari Ibrohim Sulton va Boysung`ur qo`li bilan ko`chirilgan Qur`on nusxalari fikrimiz dalilidir.

Temuriylarning ilm – fan va madaniyatga rag`bati shu qadar bo`lganki, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari Hindistonda hukumronlik qilgan yillari bu mamlakat madaniy taraqqiyotida juda katta iz qoldirdi.

Aniq fanlar rivojida ham Temuriylar zamoni alohida o`rin egallaydi. Birgina Ulug`bek akademiyasini olaylik. Bu vaqtlarda Samarqandda o`nlab mo`tabar olimlar, astranomlar, matematiklar faoliyat ko`rsatganlar. Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, G`iyosiddin Jamshid Koshiy, Abdulqodir Lohijiy, Muhammad Husayniy va boshqalar maskur maktab namoyondalari, izdoshlari edilar.

Mirzo Ulug`bek esa Samarqandda o`z davri va muayyan ma`noda keying asrlar uchun ham katta ahamiyat kasb etgan fundamental fanlar rivoji uchun keng yo`l ochib berdi. Ayniqsa, bu erda rasadxonaning barpo etilishi olamshumul voqeaga aylandi. Yigirma yil atrofida olib berilgan yulduzlar harakatini uzluksiz kuzatish ishlari natijasida 1018ta yulduzning ekliptik sistemadagi vaziyati aniqlandi.

Rasadxonada bosh o`lchov asbobining aniqlik darajasi bir yoy sekundigacha bo`lganligini hisobga olsak, yaratilgan yulduzlar jadvali to XVII asrga qadar, ya`ni optik asboblarning kashf etilguncha, eng mukammal hisoblanganligi asossiz bo`lmaganligini ko`ramiz, Temuriylar davrida tibbiyot olamida mashhur bo`lgan asarlar, chunonchi, Burxoniddin Nafisning “Kasalliklar erning sabablari va alomatlari sharhi”, “Mo`jaz al-qonun” sharhi, G`iyos mutabbibning “Kasalliklar shifosi”, Mansur ibn Muhammadning “Inson tanasi va uning a`zolari holatining sharhi”, “Kifoyati Mansuriy”, Bahouddavla Hasaniyning Tajribalar xulosasi va xayirli ishlar “kabi yana boshqa qator tibbiyot borasidagi risolalar Temuriylar davrida yozildi. Burhoniddin Nafis esa olimlik bilan bir qatorda Ulug`bekning shaxsiy tabibi ham edi. Amir Temur o`z davrining bilimdon kishisi

bo`lib, olimlarning mehnatini qadirlaydigan, ularga g`amxo`rlik qiladigan hukumdor ekanligiga ishonch oldin paydo bo`lgan va u butun umri davomida bunga amal qilib keldi.

Tarixchi olim L.Lyanglening yozishicha “Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda cofdilligini ko`rgan kishilarga ishonch bildirar edi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek ilm-fan, idora va boshqa ishlarga bilimdon bo`lgan kishilar bilan suhbatlashish uchun ko`pincha taxtdan tushib ularning yoniga kelardi.”¹

Sohibqironning ilm ahliga qay darajada munosabatda bo`lganini “Temur tuzuklari” dan yanada yaqqolroq ko`rish mumkin. “Sayyidlar, ulamoyu mashoyixlar, oqilu donolar, muhaddislar, xabarchilar (tarixchilar) ning tanlangan odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini joyiga qo`ydim”.²

Tarixdan ma`lumki, qadimdan olimu fuzalolar mamlakatni boshqarishda faol qatnashib kelganlar. Ular hukumdorlarga davlatni oqilona va odilona idora qilish, mukammal jamiyatga erishish yo`llarini ko`rsatishga intilganlar. Sohibqiron ham Sharqdagi ana shu an`analarga sodiq qolib o`z saroyida ulamo va fuzalolardan Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Xo`ja Afzal, Olouddin Koshiy, Jaloliddin Kashiy va boshqalarni to`plagan. “Amir Temur manzilida shoirlar, olimlar, mashshoqlar va sufiylar ko`p bo`lardi,” – deb yozadi venger olimi Vamberi. H.¹

Sohibqiron saroyida to`plangan turli soha ilimlarining zabardas namoyondalari haqida Ibn Arabshoh shunday yozadi. “Temur saroyidagi olimlardan Xoja Muhammad az-zohidan Buxoriy ulug` tafsirchi, hadischi, hofiz bo`lib, Qur`oni Karimni yuz jildda tafoir qilgan... Yana mashhur qorilardan Mavlono Faxriddin Qur`onni qiroatidaham, savtda ham tajvid bilan yod olgan hofizlardan Abdulatif ad-Damg`oniy, Mavlono Asauddin Sharif Hofiz al-Husayniy, Maxmud Muxrik al Xorazmiy hamda musiqa ilmida ustoz bo`lgan Abdulqodir al-Marog`iy bor edi. Va`zxon va xatiblardan Mavlono Ahmad ibn Shams ul-Alima bo`lib, uni turkcha, forsha, arabcha”Malik ul-Kalom”deb atashgan. Mavlono Ahmad at-Termiziy va Mavlono Mansur al-Kagoniy, mohir kitoblardan Sayyid haytot ibn Bandgir, Tojiddin as-Salmoniy va boshqalar munajjimlardan bir guruh kishilarkim, men ularning nomlaridan faqat Mavlono Ahmaddan boshqasini eslay olmayman.”²

Muarrixning fikridan ko`rinib turibdiki, Amir Temur saroyi tevaragida, umuman saltanatda yuzlab-minglab dunyoviy va diniy ilimlar sohiblari

¹ Amir Temur jahon tarixida. T., 2000, 175-bet.

² Temur Tuzuklari. T., 1991, 55-bet.

¹ H. Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., 1990, 55-bet.

² U. Uvatov. Amir Temur bilgan fozillar. Tafakkur // 2, 79-bet

birlashgan bo`lib,ular o`z sohalarida barakali ijod qilganlar,sohib qiron lutfi karomidan bahramand bo`lganlar,saltanat obro`siga obro` qo`shganlar.

H.Vamberi sohibqironning ilm ahliga g`amxo`rligi faqat o`z yurtidagilarga bo`lmay,xorijdan kelganlarga ham yuksak izzat va hurmat ko`rsatganligini qayt qilgan. Natijada:”Ana shu olimlarning ayrimlari Amir Temur saltanatida o`z vatanidagidan ko`proq ta`minlangan edi,” deb yozgan edi.³

Sohibqiron mamlakatni boshqarishda olimu ulamolarning maslahatlariga amal qilgan. “Ular,- deb qayd qiladi sohibqiron,-mening saroyimga doimo kelib-ketib majlisimni bezab turishdi. Diniy huquhiy aqliy masalalarni o`rtaga tashlab,qimmatli fikrlar bildirishdi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o`rgandim.

Amir Temur vaqt-vaqti bilan olimlar,muhaddislar,munajjimlar,shayxlar,tabiblar va boshqalar bilan kengashlar o`tkazgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” sida ana shunday kengashlardan biri tasvirlangan.Bu kengashning etiborga molik tomoni shundaki,unda sohibqiron olimlar va ularning davlatni boshqarishdagi o`rni haqida gapiriladi. Bailkon (Ozarbayjon shahrida o`tkazilgan kengashda hijriy 806y) Amir Temur mamlakatda adolat o`rnatishda, tartib intizom va tinchlikni mustahkamlashda,fuqorolarning turmushini yaxshilashda olimlarning yordami zarurligini aytadi. “Mamlakatning ahvoli,devondagi suiste`molliklar,oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qisib qo`yilishi kabi hollar hammadan ko`ra sizlarga ayondir,- deb murojaat qiladi u. Shular haqida ma`lumot bersangizlar bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora tadbirlarni aytsangiz yaxshi bo`lurdi.Bu oily janob ishda menga yordam berishingizni iltimos qilaman.Sohibqironning bu gaplaridan uning olimu fuzalolarning jamiyatdagi o`rniganaqadar katta baho berganligini ko`ramiz. Ushbu davrdagi manbalarning xabar berishicha,Amir Temur olimlar bilan suhbat qurishni,ular bilan bahs – munozara qilishni yoqtirgan. Bu suhbatlar Islom dini,shariat,o`tmishdagi podsholiklar va ularning sulolalari taqdiru va boshqa masalalar atrofida bo`lgan. ¹

Bu savol – javoblarda sohibqironning ko`pgina ilmlardan xabardorligi bizgacha etib kelgan kitoblarda o`z aksini topgan.

Ibn Arabshox Amir Temur Shomni zabt etgandan so`ng olimlar bilan o`tkazgan bir bahsning bayonini keltiradi. U olimlarning bilim darajasini sinash uchun murakkab savollarni o`rtaga tashlaydi. Jumladan,u ilm darajasi yuqorimi yoki

³ Amir Temur jahon tarixida.T.,2000,174-bet.

¹ Sharafuddin Ali Yazdiy.Zafarnoma.T.1997,22-bet.

nasab darajasimi? Degan savolni ko`ndalang qo`yadi. Ko`p olimlar bu savol sinov tarzida berilganligini faxmlab – hukumdordan hayqib turishadi. Shunda xanbaliy mazhabidan bo`lgan qozi Shamsuddin an-Noblusiy Temurga quyidagicha javob beradi : “Ilm darajasi nasab darajasidan yuqori bo`lib, buning martabasi xoliq va mahluq nazdida barcha martabalardan oily. Past tabaqadagi fozil kishi yuqori tabaqadagi johil kishidan yuqori tabaqadagi johil kishidan muqaddam qo`yiladi. Otasi va onasining nasabi past bo`lib, o`zi p ok bo`lgan kishi xalifalikka sharif nasabli kishidan avloroqdir. Bu xususdagi dalil hammaga ayondir, bu payg`ambar sahobalarining hammalari bir og`izdan Abu Bakrni Alidan muqaddam qo`yganligidir. Ular hammalari Abu Bakrni sahobal ichida eng olimi, islomda ularga nisbatan sobit qadam va ular ichida dastavval iymon keltirgan zot degan fikirda bo`lganlar. Temur olimning bergan javobidan to`la qoniqish hosil qilib unga qoyil qoladi va “Voajabo, u qanday fasohatli kishi, so`zda shijoatli va dovyurak deb, xitob qiladi.”¹

Amir Temur hayotligidayoq Tarix fani jadal rivojlanayotgan edi. Ko`plab tadqiqotchilarning e`tirof etishiga Amir Temur va Temuriylar ko`plarining hayoti o`zi qaxramonlik va tarixiy hodisalarga boy edi.

Sohibqiron, uning o`g`illari, nevaralari, harbiy boshliqlar va jangchilarning o`zi asli bahodir, mard inson, epic qahramonlar edi. Uning qo`shinida mardlik, jangovorlik ruhi hamisha hukmron bo`lgan. Amir Temur va Temuriylar uchun shaxsiy qahramonlik va mardlik ko`rsatish odatiy ish hisoblanardi. Quyidagi dalillar Amir Temur va uning avlodlari qahramonligi, jasurligidan guvohlik beradi.

Amir Temur yurishi paytida, odatda, o`zi bilan birga doimo “voqialarni maxsus daftarga har kuni yozib boradigan odamni olib yurardi. Urush paytida ham, tinchlik davrida ham uning yonida ko`rgan-eshitganlarini yozib boradigan kotiblar bo`lard, keyinchalik, bu yozuvlarni shaxsan o`zi ko`zdan o`tkazardi. Bu daftar-kundaliklar Amir Temur va Temuriylar rasmiy solnomasining asosini tashkil etdi.

Amir Temur haqida hikoya qiluvchi bizning davrimizgacha etib kelgan ilmiy solnomalar orasida hirotlik tarixchi Fasih Xavafiy eslatib o`tgan, epic asar alohida e`tiborga molik. Bu asar shayx Jamoliddin Mahmud Zangiyi Ajam Kermoniy tomonidan masnaviyda yozilgan bo`lib, ”Jo`sh-u xo`ro`sh” deb ataladi. O`sha paytda Turkistonda bo`lgan Amir Temur huzuriga borib, o`z asarini taqdim etmoqchi bo`lgan muallif Kura daryosida cho`kib o`lgan edi.

Amir Temur kotibi tomonidan nazmda yozilgan ikkinchi solnoma Tarixi xoniy deb ataladi.

¹ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-jild, 1997, 231-bet.

Uchinchi solnoma ham XIV asr oxirlarida nasrda yozilgan. Xondamir “Habib us siyar” asarida Samarqandlik mashhur olim Mavlono Sayfuddin Xuttaloni qalamiga mansub o`sha xronikani eslatib o`tadi. Asar uning nomi bilan ma`lum emas.

Sharafuddin Ali Yazdiy ma`lumot berishicha, Amir Temur bo`lib o`tgan voqea va hodisalar xolisona yoritilgan bu manbalarni tarix uchun saqlab qolish borasida ko`p tadbirlar ko`rgan. Ayrim hollarda u hatto yozishmalar orqali, boshqa hukumdorlarga elchilar yuborish yo`li bilan ko`p ma`lumatlarni aniqlardi.

Amir Temurning ayrim yurishlari ham muntazam yozib borilardi. Uning Hindistonga 1398-1399 yillardagi yurishiga oid kundalikni qoziul quzzot Nasriddin Umar olib borgan. Lekin, avvalgi sahifalarda qayt qilinganidek, bu asarda voqealarning kunma-kun sanab o`tilishi Amir Temurni qanoatlantirmadi, va u yurishni batafsil bayon qilishni G`iyosiddin Ali Yazdiyga topshirdi. Podsho uning oldiga kundalik “Tabiiy, hammaga tushunarli bo`ladigan uslubda, ravon yozilishi kerak,” deb shart qo`ydi. Lekin, diniy ilmlar bilan ko`proq mashg`ul bo`lgan G`iyosiddin bu vazifaning uddasidan chiqmadi. Shuning uchun ham hukmdor uning 1399 yilda yozib tugatgan “Ro`znomayi g`azovoti Hindiston” kitobini qabul qilmadi.

Yuqorida nomlari tilga olingan mualliflarning ishlaridan ko`ngli to`lmagan Amir Temur Tabrizlik olim Nizomoddin Shomiyga o`zining batafsil tarixini yozishni topshirdi. Nizomiddin Shomiy 1393 yil yozida Bog`dod olingan paytda hukmdor bilan uchrashdi. U 1402 yilda Amir Temur topshirig`I bilan uning tarixini batafsil yozishga kirishib, 1404 yil martida “Zafarnoma” nomi bilan tugatadi.

Muallif asarni etti yillik yurishdagi keyin (1399-1404) Samarqandga qaytishga taraddud ko`rayotgan sohibqironga Qarabog` (Ozarbayjon) da taqdim etdi. Garchi “Zafarnoma” to`liq bo`lmasada, Amir Temurga ma`qul tushdi.¹

1404 yil martida Amir Temur vafotigacha bo`lgan vaqt oralig`ida sodir bo`lgan voqealarni Shohruhning buyrug`I bilan XV asrning mashhur tarixchisi Hofizi Obro` “Zayli Zafarnomai Shomiy” asarida yozgan.

Rui Gonzales de Klavixo yozgan yo`l xotiralari Ispan elchisining 1403-1406 yillarda Samarqandga Amir Temur saroyiga tashrifi to`g`risida hikoya qiladi. Mazkur asar muhim hujjat sifatida katta qiziqish uyg`otadi, zero unda XV asr boshlaridagi Sharqqa oid ma`lumotlar, voqealar ularning bevosita shohidi bo`lgan evropalik kishi tilidan hikoya qilinadi. Bu asar o`ziga xos sayohatnomadir.

¹ Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”. T. 1996, 5-bet.

Fors hukmdori saroyida xizmat qilgan Mo`iniddin Natanziy 1413-1414 yillarida Shohruxga bag`ishlangan.” Muntaxab at-Tavorix-i Mu`iniy” tarixiy asarini yozib tugatdi. Mazkur asarda dunyo yaratilishidan boshlab asar tugatilgunicha bo`lgan davrida musulmon davlatlarida ro`y bergan voqealar umum tarix nuqtayi nazaridan bayon etiladi.

Shohrux va uning Forsda hukmronlik qilgan (1415-1435) o`g`li Ibrohim Sulton davrida Sharofuddin Ali Yazdiy fors tilida o`zining mukammal “Zafarnoma” tarixiy asarini yozdi, muallif uni 1425 yilda Xirotda Shohruxga taqdim etdi.

Shomiy asarida foydalangan Sharafuddin Ali Yazdiy tarixiy voqealar bayoni ustida qo`shimcha ish olib bordi. Ibrohim Sulton homiyligida podsho idorasi hujjatxonasidan to`la foydalangan muallif Amir Temur vafotidan keyingi dastlabki ikki yil ichida bo`lib o`tgan voqealarni ham kitobga kiritgan.

Bayon qilingan voqealar ham yozma, ham og`zaki manbalar bilan tasdiqlangan. Sharafuddin Ali Yazdiyning asari bugungi kunda Amir Temur hayoti va faoliyati to`g`risida hikoya qiluvchi ehg mukammal, qimmat baho tarixiy hujjatlaridan biridir.

1423-1427 yillarda noma`lum muallif tomonidan “Muiz zul-ansab” asari tuzilgan bo`lib, unda Amir Temur shajarasi keltiriladi.

Xofizib Abro` Shohrux topshirig`I bilan ikki yirik va bitta tarixiy – geografik asar yozdi.

Uning “Majmuayi Xofizi Abro` tarixiy asari 1412-1418 yillarda yozilgan bo`lib, u o`zidan oldin yashagan mashhur va ma`lum mualliflar – at – Tabariy (829-923), Fazlulloh Rashididdin (1247-1317) va Nizomiddin Shomiyalar asarlarining davomidir. Uning tarixiy – elografik asari 1414-1420 yillarda yozilgan.

Xafizi Abro` Boysung`urning topshirig`I bilan 1423-1425 yillarda uchinchi asari – “Majma At-Tavorixi sultoniya” (to`rtinchi jildi – “Zubdat at Tavorixiy Boysung`uriy “)ni yozdi. Mazkur asarning oxirgi qismi ayniqsa muhim, unda Amir Temur tarixi ancha to`liq yoritilgan.

Ayni o`sha davrda Tojiddin Salmoniy “Tarixnoma” asarini yaratdi, unda Shohruxning 1409 yilda Movarounnahrni qanday ishg`ol qilgani aks ettirilgan.

1401-1408 yillarda Samarqandda yashagan, hukmron doiralarga yaqin bo`lgan Ibn Arabshoh Amir Temur saroyida ro`y bergan ko`pgina voqealarning bevosita ishtirokchisi va shoxidi bo`lgandi. U 1437yili vatani Damashqqa qaytib ketib “Ajoyib al-maqdurfi tarixi Temur” asarini yodi. Lekin bu asar ehtiros bilan yozilgani uchun ba`zi voqealar buzib ko`rsatilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida tarixiy majmualar yozish keng tarqalgan bo`lib, ularda o`sha davrning qaror topgan an`analariga muvofiq dunyo yaratilishidan to`asar yozilgan davrgacha bo`lib o`tgan eng muhim voqealar sana tartibida berilgan.

Hirotlik tarixchi Fasix Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiy (1375-1442) qalamiga mansub 1442yilda yozilgan “Mujmali Fasixiy” asari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asarning oxirgi qismida muhim tarixiy voqealar, atoqli davlat arboblari, o`sha davrning mashhur olimlari, shoirlari to`g`risida qisqacha ma`lumot berilgan. Unda eng yirik qurilishlar, inshootlar-masjid va madrasalar, xonaqohlar va saroylar, bog`va karvonsaroylar, hammomlar hususida hikoya qilingan. Amir Temur va uning avlodlari hayoti, faoliyati, shajarasiga oid ma`lumotlar ham berilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy ham “Matlayi sa`dayn va majmai bahrayn” asarida voqealarni yilma-yil bayon qilib beradi, unda o`zining Kermon, Hurmuz va fors orqali Hindistonga qilgan safari to`g`risida yozadi. Asarda Eron va O`rta Osiyoning XIV-XV asirlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti keng yoritilgan, shuningdek Hindiston va Xitoy bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari bayon qilingan.

Umumiy tarix bo`yicha “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa” asarini mashhur tarixchi Mirxond (Maxdumi Amir Xovand Muhammad, 1434yilda tug`ilgan) yozgan. U umrining ko`p qismini Hirotida o`tkazgan. Unga Alisher Navoiy homiylik qilgan. Shoirning maslahati bilan bu asarni yozgan, asarning oxirgi qismi XV asr ikkinchi yarm tarixini o`rganishda katta ahamiyatga ega.

Xondamir nomi bilan mashhur Humomiddin Muhammad Xirotda tug`ilib, ta`lim olgan. Xondamir Husayin Boyqaro, Badiuzzamon va xumoyun saroyida xizmat qilgan u tarixga o`zining o`nuch asari bilan kirib kelgan, lekin ulardan atagi sakkistasi, shu jumladan uning mashhur “xulosat al-axbor fibayon al-ahvol al-axyor”, “Habib us-siyar fi axbor va afros al-bashar” asarlari bizgacha etib kelgan. Ularda olimlar, (tarixchi va matematiklar, astronom va tabiblar, qonunshunos va din ahli, shoir va yozuvchilar, san`at arboblari va hattotlar, rassom va musiqachilar, sozandalar) to`g`risida muhim ma`lumotlar berilgan.

Xondamir o`z asarlarida Temur va Temuriylar Xorazm, Xirotda, Balx va boshqa shaharlarida amaiga oshirgan qurilish hamda tamirlash ishlarini yoritishga katta etibor bergan. Mirza Muhammad Haydar (1500yilda Toshkentda tug`ilib, 1551yili Kashmirda vafot etgan) Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi bo`lib, taniqli davlat arbobi edi. 1456yilda esdalik tarzidagi “Tarixiy Rashidiy asarini yaratib, uni Abdurashidxon ibn Sulton Saidxon ibn Yunusxonga (1510-1559

) bag`ishlagan. Asarda Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg`oniston, Shimoliy Hindistonning tarixiy manzarasi keng yoritilgan.

2. Amir Temur tarixi zamondoshlari nigohida.

Amir Temur hayoti va faoliyatini gavdalantirish uning zamoni mohiyati, ruhi, muhitini tasvirlash uchun gapni tarix fani tayanib kelgan va bundan buyon ham tayanadigan asos zaminli eng muhim yozma manbalardan boshlash maqbul. Amir Temur hayot davrida zamondoshlari tomonidan va uning homiyligida yoki Sohibqiron vafotidan keyin hali voqealarning ohori to'kilmay va salaflarning merosini e'tiborga olgan holda yaratilgan asarlar ilk manbalar sifatida g'oyat qimmatlidir. O'sha davr taqqazosiga ko'ra bu asarlar forsiy tilda yozilgan.¹

Buyuk olim G'iyosiddin Ali ibn Jamol ai-Islom Yazdiyning "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" ("Hindistonga yurish kundaligi") risolasi Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi. Bu risola Amir Temurning shaxsiy ko'rsatmasi bilan 1399-1403 yillar oraliq'ida yozilgan. Unda 1398-1399 yillardagi yurish batafsil tasvirlangan.

G'iyosiddin Ali risolasiga Amir Temurning munosabati e'tiborga sazovordir. Bu munosabat Amir Temur shaxsiy xislatlarning ayrim jihatlarini birmuncha yoritib beradi. Yuqorida takidlanganidek, bu asar "Gayritabiiy iboralarsiz va kitobxon uchun tushunarli uslubda" yozilishi lozim edi. Shu sababli G'iyosiddin Alining ko'pincha asosiy ishga aloqasi bo'lmagan va bayon mavzuini xiralashtiradigan, tushinish qiyin bo'lgan dabdabali va jimjimador tasvirlari Amir Temurga uncha yoqmadi.

Ammo shunday bo'lsa ham, G'iyosiddin Ali Yazdiyning risolasi unda aniq ma'lumotlar bayon etilgani jihatidan qimmatli manba hisoblanadi. Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Niomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari, o'ziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, shubhasiz, birinchi o'rinda turadi. Nizomiddin Shomiy (taxminan 1409-yilda vafot etgan) o'z asarini 1402-1404 yillar orasida Amir Temurning topshirig'i bilan yozgan. Asarda Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan (1370) to uning G'arbiy Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Turkistonga qilgan yetti yillik yurishi (1399-1404) voqealari bayon etilgan.

Asarning oddiy til va sodda uslubda yozilganligi undan foydalanishni yengillashtiradi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si bizgacha ikki tahrirda yetib kelgan. Birinchi tahriri 1404-yil iyun oyida Amir Temurning Erondan Movaraunnahrga qaytish paytida unga taqdim qilingan nusxa bo'lib, hali unga nom berilmagan edi. Ikkinchi tahriri o'sha paytda Ozarbayjon va Iroqni idora qilib

¹ Amir Temur jahon tarixida. T., 2000, 196-bet.

turgan Mironshohning o'g'li Mirzo Umarga taqdim qilingan nusxadir. Muallif uni bir qadar tahrir qilgan. Muqaddimaga ba'zi qo'shimchalar kiritgan.¹

Mashhur tarixshunos olim Hofizi Abro' Shomiyning bu asarga qo'shimcha yozgan va u "Zayli Zafarnomai Shomiy" deb ataladi. Unda Amir Temur vafotigacha (1405-y. 18-fevral) bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan.

Mazkur asarning qo'lyozma nusxalari juda kam bo'lib, Turkiya hamda Armaniston kutubxonalarida saqlanadi.

Asardan ko'p parchalari rus tilida "Сборник материалов, относящихся к истории Золотой орды"(M.,1941) va "Материалы по истории туркмен и Туркмении"(M.,1939) nomli majmualarda e'lon qilingan. Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma"sining matni, zarur izohlar va ko'rsatgichlar bilan to'ldirilib, chex sharqshunos olimi Feliks Tauer tarafidan chop etilgan. Asarning Najotiy Lug'at qilgan turkcha va o'zbekcha (1996 y) tarjimalari ham bor.

Yana bir "Zafarnoma" Sharfuddin Ali Yazdiy (1454 y. vafot etgan)ning qalamiga mansub bo'lib, ko'tarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar "Zafarnomai Temuriy", "Tarixi jahonkushoyi Temuriy", "Fathnomai Sohirqironiy" nomlari bilan ham atalgan bo'lib, Nizomiddin Shomiy asari asosida yozilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining bir qancha afzal taraflari bor. Masalan, ko'plab dalil va hodisalar aniqlab yozilgan. Xalil Sulton hukmronligi yillari voqealarini ham o'z ichiga olgan. Asarning yana bir muhiim afzalligi shundaki, uning katta muqaddima qismi ham bo'lib, unda Jo'ji, Chig'atoy uluslari hamda Elxoniyalar davlatining Amir Temurgacha bo'lgan tarixi qisqacha bayon etilgan. Muqaddima "Tarixi Jahongiriy" va "Muqaddimai Zafarnoma" nomlari bilan ma'lum. Sharfuddin Ali Yazdiy bu asrni Fors hokimi, Temuriyzoda Ibrohim Sultonning topshirig'I bilan yozgan (1425).

Asar Amir Temur tarixi, uning tvallud topishidan (1336) to Xalil Sulton hukmronligiga chek qo'yilishigacha (1409) bo'lgan davrda Movaraunnahr, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlardakechgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Asarning qo'lyozma nusxalarini Osiyo va Yevropadagi talaygina mamlakatlarning kutubxonalarida uchratish mumkin.

Sharafuddin Ali Yazdiy"Zafarnoma" sining matni ikki jildda Kal'kultta (1885-1888) va Tehron (1957)da Mavloniy Muhammad Ilohdod va Muhammad Abbosiyalar tarafidan chop etilgan. Fransuz(Pati de La Krua,1722) va ingliz (J.Darbi, 1723) tillardagi qisqacha tarjimalari ham bor. Asarning

¹ Nizomiddin Shomiy."Zafarnoma".T.1996,4-bet.

Shayboniyxonlardan Ko'chkunchixon(1510-1529)vzamonida Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy o'zbek tiliga qilgan durustgina tarjimasini ham bizgacha yetib kelgan. ¹

XIX asrda shoir va vazir Munisning topshirig'iga binoan Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad Xivaqiy qilgan tarjima va Yaroqboy Qong'irotning ko'rsatmasi bilan noma'lum tarjimon qilgan o'zbekcha tarjimalari, shuningdek Mustafo Rahimning turkcha tarjimasini (Istanbul, 1929) ham mavjud.

Asrdan ayrim parchalar fransuz, ingliz, rus, italyan va o'zbek tillarda chop etilgan. Parchalar Oltin O'rda hamda Amir Temurning 1360-1370 (Movorounnahr) , 1398-1399 yillardagi (Hiniston yurishi) tarixga oiddir.

Har ikkala "Zafarnoma" Movounnahr, Eron va Ozarboyjonning ijtimoiy – siyosiy va etnik tarixini, xalqning madaniy hayotini, shuningdek Amir Temur va Temuriylar davlatining boshqa mamlakatlar bilan siyosiy munosabatini o'rganishda muhim manbadir.

Sharofuddin Ali Yazdiy asarining o'ziga xos xususiyati shundaki, u hassos yilnomachi sifatidagina emas, balki istedodli adib, mohir bayonchi sifatida ham namoyon bo'ladi. Keyinchalik ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy risolaning shu jihatini alohida uqtirib, Sharofiddin Ali Yazdiyning asarini mahorat bilan yozilgan eng mukammal risolalar jumlasiga kiritadi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyatida "Zafarnoma" "markaziy Osiyo tarixnafislarining durdonasi" sifatida baholanadi.

XX asrning yirik sharxshunosi va bilimdoni A.K.Arends "Shomiy va Yazdiy Zafarnoma" larini solishtirib ushbu haqqoniy gapni aytgan edi: "Amir Temur haqidagi asarlardan biri Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" nomli rasmiy tarixi bo'lib, bu asar hali Amir Temur hayotlik davridayoq tuzilgan edi.

Biroq Amir Temur davri tarixiga oid anchagina to'liq ma'lumot Sharofiddin Ali Yazdiyning ilm-fanda "Zafarnoma nomi bilan mashhur bo'lgan asarida berilgan".

Tarixchi va olim Sharofiddin Ali Yazdiy Amir Temur tarixini yoritishda katta ehtiyotkorlik bilan yondashdi. Muallif o'z kitobini imkoni boricha ishonchli faktik materiallar, Amir Temur buyrug'iga asosan uning kitoblari tomondan yozib qoldirilgan voqealar, bu voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar ma'lumoti asosida badiiy tarzda bayon etilgan....

¹ Sharafuddin Ali Yazdiy. "Zafarnoma". T., 1997, 10-bet.

Shuning uchun ham ortiqcha maqtovlar bo'lishiga qaramay, Sharofiddin Ali Yazdiy Amir Temur shaxsiyatidagi ziddiyatlarni ancha haqqoniy tasvirlagan.
21

Yazdiy keltirgan xabarlarning haqqoniyligiga "Zafarnoma" ning noshiri A.O'rinboev ham qator asosli dalillar keltirdi. U bunday yozadi: "Muallifning takidlashicha, Ibroxim Sulton(Shoxruxning o'g'li) haqida maxsus kitob yozdirishni niyat qilgan va 822/1419 -1420 yillarda o'z davrida kotiblar –baxshi va munshiyalar tomonidan Temur haqida turkiy hamda forsiy tilda yozib qoldirilgan mavjud ma'lumotlarni birga keltirish haqda farmon chiqargan. Keyin esa materyallar o'rganila boshlangan...

Asarning Amir Temur tarixidan bayon etuvchi asosiy qimida yozilishicha, podshohlikning barcha tomonlardan Amir Tamur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon etilgan hikoyalarning hamma sheriy va nasriy nusxalari to'plab bo'lgach, materyallar bilan tanishish uchun 3 ta guruh tuzilgan.

Turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari 2 guruhni, voqealrni ko'rganlar esa 1 guruhni tashkil etgan. Dastlab Amir Temur haqidagi har bir hikoya o'qilgan, agar u voqeaning o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining talqiniga to'g'ri kelmay qolsa, Ibroxim Sulton haqiqatni topish uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Amir Temurning boshqa zamondoshlardan surishtirgan yoki qo'shimcha ma'lumot to'plagan.

Boshqa guvohlarning hikoyalari ham eshitgach, Ibrohim Sulton aytib turgan va dastlabki xomakisi yozib borilgan. Ana shu materyallar asosida esa Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarini yozgan.

Ibrohim Sultonning buyrug'iga asosan bu asarni yozish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirish shart bo'lagan.

Sharafuddin Ali Yazdiy oldiga asarni jonli hamda tushunarli qilib yozish talabi qo'yilgan, shuningdek u hujjatlarga qat'iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita nazorati ostida amalga oshirilgan dastlabki xomaki yozuvdan chetga chiqmasligi hamda narsani bo'yab ko'rsatmasligi kerak edi.

Shunday qilib Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si Amir Temur haqidagi yozma manbalar orasidagi aniq hujjatlarga asoslangan eng haqqoniy va ishonarlisidir.

Demak, bu asardagi barcha kishilarning, joylarning nomlari, voqealarning sanalari haqiqat bo'lib, barcha xabarlar rost va haqqoniydir. Tarixchi va elshunos olim

Shaxobiddin Abdulloh ibn Lutfulloh ibn Abdurashid al –Havofiy (Hofizi Abro’) ham Amir Temur tarixnavisligining yana bir namoyandasi bo’lib maydonga keldi. Uning o’z so’zlariga qaraganda, u Amir Temur saroyida xizmatda bo’lgan, muayyan darajada unga yaqin turgan. Hofizi Abro’ Amir Temurning xizmatida sharqning bir qancha mamlakatlari bo’lgan, Amir Temurning vafotidan so’ng uning o’g’li Shoxrux saroyida tarixnavis bo’lgan. Hofizi Abro’ 1431 yilda vafot etgan.

Hofizi Abro’ Amir Temur va Shoxruxga yaqin odam bo’lgani uchun ham u keltirgan ma’lumotlar ham o’ta muhim.

Hofizi Abro’ bir necha muhim tarixiy asarlar yozib qoldirgan. Ulardan biri ”Majmuayi Hofizi Abro’” deb ataladi. undan muhim arabiy tarixchi Tarabiy (839-923)ning ”Kitobi rasul val-mulk va-l-xulafo” (”Payg’ambarlar podshohlar va xalifalar tarixi”) kitobining Balamiy qilgan forscha taxriri aniqrog’i, xalifa Muqtadir zamoni (908-932)dan to xalifa al-Muxtasim(1242-1258) davrigacha bo’lgan tarix, shuningdek, ”Zayli Majmua at-tavorixi Rashududdin” (Eronning 1306-1393 yillaridagi tarixi)va ”Zayli Zafarnomai Shomiy” asari o’rin oldi. ”Majmuayi Hofizi Abro’” dan ayrim parchalar matni Xonbobo Bayoniy (1938), Feleks Tauyer vz K.M.Maytra (1934) tomonidan nashr etilgan.

Hofizi Abro’ning ikkinchi asari “Zubdat ut-tavorixi Boysung’uriy” (“Boysung’ur Mirzoning saralangan tarixi”) nomi bilan mashxur va umumiy tarix tarzida yozilgan asardir. Unda Olamning “yaratilishi” dan to 1426- yilgacha bo’lib o’tgan voqealar qayd qilib o’tilgan. Asarning to’rtinchi qismida Amir Temur tarixi Shomiyning “Zafarnoma”si asosida qisqa tarzda va Shohrux Mirzo tarixi (1436 – yilga qadar) batafsil bayon etiladi.

“Zubdat ut-tavorixi Boysung’uriy” ning nusxalari kam, ular Angliya, Fransiya, Turkiya, Eron, Afg’oniston va Rossiya kutubxonalarida saqlanmoqda.

Hofizi Abro’ asaridagi Amir Temur haqida bayon etilgan ayrim

ma'lumotlar tadqiqodchilar e'tiborini tortadi. Masalan, Hofizi Abro'ning guvohlik berishicha, Amir Temur din va shariatni mustahkamlash borasida sitqidildan g'amxo'rlik qilgan. Amir Temur zamonida Samarqand yaqinidagi Angor tumanida va Murg'ob daryosi havzasining yuqori qismida ariq va zovurlar qazilganligi haqida ma'lumotlar ham shu asarda bayon etilgan.

Hofizi Abro' o'z risolasi mazmuniga Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" sedan matnlarni qo'shib (5), shu tariqa ularni avlodlar uchun saqlab qoldi(6).

Movaraunnahr va Xurosonning 1404-1409 yillardagi siyosiy tarixini o'rganishda Xoja Tojiddin as –Salmoniyning "Tarixnoma" kitobi katta ahamiyat kasb etadi. Asar "Zayli Zafarnoma" ("Zafarnoma"ga qo'shimcha) nomi bilan ham ma'lum.

Asar muallifi haqida juda kam ma'lumotga egamiz. Faqat uning asli Isfahonnadan ekanligi, mohir xattot devoni insho(yozishmalar devoni) ning ko'zga ko'ringan xodimi sifatida ma'lumligi Muzaffariylar davrida 1397 yili Sherozdan Samarqandga kelganligi, 1409 yili uni Shohrux Xurosonga olib ketganligi va uning topshirig'i bilan mazkur asarni yozishga kishirganligi ma'lum, xolos. Lekin u kitobni yozib tomomlay olmadi. Saroydan vazir Sayid Faxriddinga qarshi fitnaga ishtirok etganligi uchun qamoqqa olindi.¹

Xoja Tojiddin as –Salmoniy Amir Temurning so'ngg kunlari va Shohrux tarixini yozishga mo'ljallagan edi. Lekin muddaosiga yeta olmadi.faqat 5-6 yillik tarixini yozib ulgurdi, xolos. Xullas, "Tarixnoma" da 1404-yilning kuzida Konigilda bo'lgan tantana va to'yi tomoshalar, Amir Temurning Xitoyga yurishining boshlanishi, uning vafoti, Xalil Sultonning markaziy hokimiyatining tortib olishi (1405-yil mart oyining o'rtalarida) va 1409-yil mart oyining oxirida uning Xudoydot boshliq bir guruh amirlar tarafidan asr olinishi tarixidan so'z yuritiladi.

"Tarixnoma"ning 3 ta nusxasi bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ulardan biri qusirli va Angliyaning Britaniya muzeyida (tartib raqamiOr 159), qolgan ikkitasi Turkiyada Sulaymon Fotih (tartib raqami 4301) va Lola Ismoil afandi kutubxonasida (tartib raqami 304) saqlanmoqda .So'ngi nusxa to'laroq bo'lib, foydalanishga qulay. Asarni nemis tiliga Gans Robert Remer va rus tilida Z.M. Bunyotov tarjima qilgan.

Amir Temur tarixi Eronlik tarixchi olim Mo'iniddin Natanziyning sharqshunoslar orasida "Muntaxab ut –tavorixi Mo'iniy" ("Mo'iniyning saylanma

¹A.Madraximov. G.Fuzailova.Manbashunoslik.T.,2008,50-bet

tarixi”) nomi bilan mashxur bo’lgan asarida ham qisqa tarzda bayon etilgan. Asar 1413 –yili Sherozda Temuriy Iskandar Mirzo saroyida yozilgan.

“Muntaxab ut –tavorixi Mo’iniy” ning ikkita taxriri mavjud: biri yuqorida nomi zikr etilgan Iskandar Mirzoga bag’ishlangan, ikkinchisi Shoxruxga taqdim etilgan nusxa, Iskandar Mirzo Shohrux tomonidan tor-mor qilinganidan keyin (1414-yil 20- iyul) tahriridan chiqarilgan. Unda Iskandar Mirzo haqidagi hikoyatlar bir muncha qisqartirilgan, uning shaniga aytilgan hamdu sanolar olib tashlangan.

Asarda eng qadimgi davrlardan to Amir Temur vafotigacha (1405 –yil 18 – fevral) bir qator o’lkalarda yuz bergan muhim tarixiy voqealar qisqacha bayon qilingan. Ko’p hollarda muallif har bir sulola tarixiga alohida bob bag’ishlagan. Asarning so’nggi qismlari Markaziy Osiyo tarixini o’rganishda muhim ahamiyatga ega. Asarda Amir Temur yashagan va hukmronlik qilgan davrda yuz bergan tarixiy voqealar bir muncha mufassal bayon qilingan. U Ushbu davr tarixini muallif asosan o’zi to’plagan materiallar asosida yozgan. Amir Temur zamonasidagi voqea hodisalar Natanziyga yaxshi ma’lum bo’lgan, shuningdek, u saroy solnomalaridan foydalanish, mashxur tarixiy voqealarning hali hayot bo’lgan ishtirokchilardan o’ziga kerakli ma’lumotlarni so’rab –sorishtirib bilib olish imkoniyatiga ega bo’lgan. Bazi o’rinlarda muallif shohidlardan eshitib yozganiga ishora etadi.”Muntaxab ut-tavorix”dagi ayrim xronologik chalkashliklar, nazarimizda, Natanziy og’zaki ma’lumotlardan ko’p foydalanganini natijasidir. Asarda Amir Temurning vatanparvar lashkarboshi va tadbirkor davlat arbobi sifatida kamol topib borishi yorqin aks etirilgan. Muallaf mamlakatdagi tarqoqlikni tugatishda va mo’g’ul xonlarining Movarounnahrda bosqinchilik tajovuzlariga chek qo’yishda Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyati g’oyat katta rol o’ynaganini takidlaydi.

Amir Temur hukmronligi davri tarixi ko’tarinki uslubda bayon etiladi. O’tgan bir yarim asr davomida tanazzuldan boshi chiqmagan Turonda ulkan o’zgarishlar yuz bera boshlaydi.”Andak fursatda Samarqand shu qadar go’zal va obod bo’ldiki, Oliy jannatga tana qilib, yer yuzining behishtiga 25 aylandi. SHaharning tevarak-atrofida ham ko’rkam bog’lar va dilkash imoratlar bunyod ettirdi. Rub’i maskurning barcha joylaridan juda ko’p odamlar bu muborak shaharga o’tlanib, hazrat Amir Sohibqironning adolati va marhamati soyasidan panohtopishdi.

Hazrat barcha yo’llarda yomlar (mahsus bekatlar) barpo barpo etikshni buyurdi va xalq o’tib –kechadigan joylardagi xarobalarni tuzatib, obod qildirdi. Oliy rabotlar va xonaqohlar qurdirib, faqiru miskinlar uchun xayriya tarzida ularning eshiklarini ochib qo’ydi. Chunonchi, Amir Soxibqiron ko’p muddatgacha

zaminning bebeyon gilamida yashovchi xaloyiqlikning shodu xurramligiga bois bo'lib, ulkan bir davlatni idora etdi.

“Muntaxab ut –tavorixi ”da Amir Temurning shaxsiy xislatlari, qaysi ilmlarga qiziqqani haqida ham muhim ma'lumotlar bor. “Amir Sohibqiron ilmi hikmat ahli va fan arboblari bilan g'oyatda do'stlashgan edi.Tarix kitoblarini eshitish orqali ummatlar nasabi va sharhi hollarini turk, arab va ajam podsholarining turgan joylari va qilgan ishlari va bu ilmning boshqa tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi. Tib va nujum ilmlarining mashhur masalalarida ham yetarli ma'lumotga ega edi. O'zining aksar vaqtini sayyidlar, olimlar va mashoyixlar bilan suxbatlashishga sarf qilar edi. ¹

“Muntaxab ut –tavorix ”ning manba sifatidagi qimmatli jihatlaridan yana biri shuki, Amir Temurning harbiy dahosi va jangovarligi haqida boshqa manbalarida uchramaydigan bazi muhim ma'lumotlar bayon qilingan. Natanziy keltirgan turkiy tildagi o'sha davrga oid bir qancha harbiy atamalar hatto Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” larida ham uchramaydi. Bu hol Natanziy asarining orginalligi, muxarrir o'z davriga oid harbiy atamalarni sinchiklab o'rganganini tasdiqlaydi hamda, ehtimol, u Amir Temur lashkarida jang qilgan bazi yirik sarkardalardan ham o'z asari uchun ma'lumotlarni so'rab olganini taxmin etishga asos beradi.

“Mutaxab ut –tavorix Mo'iniy” ning nusxalari Buyuk Britanya, Fransiya, Rossiya va Eron kutubxonalarida saqlanadi.

Uning bazi nusxalarining ruscha tarjimasi “ Oltin O'da tarixiga oid matereallar” to'plamida (№ 28, Parij, 1814, 244-258 betlar) nashr etilgan. Asarning to'la Fransuzcha tarjimasini Jak Oben nashr qilgan.

Hofizi Abro' va Mo'iniddin Natanziydan keyin Kamoliddin Abdurazzoq ibn Mavlon Jaloliddin Ishoq as –Samarqandiyning nomi alohida ajralib turadi. U 1413 yilda Shohrux saroyida yaqin bo'lgan imom oilasida tug'ilgan.

Abdurazzoq Samarqandiy, avvalgi sahifalarda takidlaganidek, Shohruxning diplomatiya sohasidagi topshiriqlarni bajargan. Shohrux vafotidan keyin boshqa temuriyzodalar huzurida xizmat qilgan, 1463-yildan boshlab Xirot madrasalaridan biriga shayx bo'lgan va shu yerda taxminan 1483 –yilda vafot etgan. G'oyat mashhur bo'lgan “Matlai sadayin va majmai baxrayin” (“Ikki saodatli yulduzlarni chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi”) asari Abdurazzoq Samarqandiy qalamiga mansubdir. Bu asar XIV –XV asrlarga oid voqealarni o'z ichiga oladi(7).

¹Amir Temur jahon tarixida.T.,2000,199-bet.

Muallif qo'lyozmani 1470 –yilda yozib tugatdi, keyinchalik unga bazi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritdi.

Yuqorida tilga olinganidek Hofizi Abro'ning “Zubdat ut –tavorix” asari Abdurazzoq Samarqandiy uchun asosiy manba bo'ldi. Tadqiqotchilar Abdurazzoq Samarqandiyning Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma” lardan (8) va boshqa bazi mualliflarning asaridan ham baxramand bo'lganligi, ammo uning asarida mazkur asarlarda uchramaydigan bir qancha tafsilotlar ham borligini taskitlaydilar. Shu jihatdan Abdurazzoq Samarqandiy asari Amir Temur va uning davlati tarixini o'rganishga oid muhim manbalardan hisoblanadi. ¹

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” si bilan birga Abdurazzoq Samarqandiyning bu kitobida Amir Temur va Temuriyzodalar haqida batafsil bayon qilingan, mazkur kitob Sharq va G'arbda ko'p martalab nashr etilishining sababi ham shunda.

Amir Temur zamondoshi –mashhur arab tarixchisi Abdurahmon abu Zayd ibn Xaldunning (1332 -1406) fikrlari diqqatga sazovor. Uning ko'p jiltli asosiy tarixiy ijtimoiy asari “ KItoab al ibor” (“ Nasixatomuz misollar kitobi”) jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi ta'limotga hamda musulmon Sharqi xalqlari va Mag'rib xalqlari tarixinio o'rganishga qo'shilgan katta hissa deb tan olingan.

Ibn Xaldun Damashq shaxrining Amir Temurga topshilishi shartlari haqidagi muzokara olib borgan Damashq delegatsiyasi tarkibiga kirgan edi. Shu tariqa Ibn Xaldun Amir Temur bilan shaxsan suhbatlashishga misharraf bo'lgan. Ibn Xaldunning Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatiga qanday munosabatda bo'lishidan va qanday nazar bilan qarashidan qat'iy nazar, u Amir Temurning betakror va yorqin shaxsiga xolis baho bermasdan iloji yo'q edi. Ibn Xaldun Amir Temurning harbiy tarix sohasidagi teran bilimidan hayratga tushdi(9). Ibn Xaldun o'sh paytda Amir Temur sehrgarlik va jodugarlik kuchiga ham ega, degan qat'iy tasavvurlarni qat'iy rad qildi, uning munozara va bahslarni yaxshi ko'radigan o'tkir zakovatli va teran zehnli inson ekanligini takidladi.

Ibn Xaldunning dalolat berishicha Amir Temur indan “ o'zingizning Mag'rib malakatingizni, uning manzillari va shaharlarini batafsilroq bayon etib beringiz”,-deb iltimos qilgan(10). Amir Temur o'z suhbatdoshining at –Tabariy (X asr boshlarida yashagan tarixchi) qarashlarini shaxsan qanday baholashini so'radi. Mana shularni hammasi Amir Temurning keng bilimli va sinchkov donishmand sifatidagi qiyofasini qimmatli jihatlar bilan to'ldiradi.

¹ O'sha asar 200-bet.

Amir Temur zamondoshlaridan biri Ibn Arabshoh (Shahobiddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim(1389 -1450) asari Amir Temur haqidagi manbalar qatoridan alohida o'rin oladi. Ibn Arabshoh Damashqda tug'ilib o'sgan. Bu shahar Amir Temur qo'liga o'tganda u 12 yoshda edi. U aka –ukalari hamda onasi bilan birga Samarqandga olib ketildi, bu yerda 1401 dan 1408 yilgacha yashaydi. Ibn Arabshoh shu yerda talim oladi, sharq tillardan bir nechtasini o'rganadi, har holda Amir Temurning o'z saroyiga bo'lmasada, Temuriylardan birining saroyiga turganligi seziladi. 1408 –yildan keyin Sharq mamlakatlari bo'ylab ko'p sayohat qilgach ona shahri Damashqqa qaytadi, songra Qohirada yashaydi va shu yerda vafot etadi.

Ibn Arabshoh tarix, adabiyot, gramatikaga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning qalamiga mansub “Ajoyib al –maqdur fi axboriy at –Taymur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) Amir Temurga va ining zamoniga bag'ishlangan salmoqli asardir.¹

Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan dushmanlik ruhidagi mualliflar jumlasidan edi. Bu hol uning asarida to'la aks etdi.

Shunday bo'lishi tabiiy edi, chunki jahon tarixidagi eng yirik arboblardan hech biri va hech qachon adabiyotda bir xil, bir ma'noda baholangan emas. Ularning hayoti va faoliyati to'g'risidagi bilimlar jamlanishi jarayonida ularning tafafdorlar va g'animlar orasida bahslar bo'lib turgan, ijobiy va salbiy yoki betaraf tarzidagi shu kabi fikrlar aytib kelingan.

Mana shunday muayyan bir holatda, Ibn Arabshohning Temur davlati va unga chegardosh mamlakatlar siyosiy, xo'jalik va madaniy turmushni qo'shimcha ravishda oydinlashtirib bruvchi ko'pdan ko'p diqqatga sazovor misollarni bayon qilishi g'oyat muhimdir.dunyodagi ko'pgina sharqshunoslar, tarixchilar, san'atshunoslar Ibn Arabshoh asarining ana shu jihatiga zo'r etibor bilan qarab kelmoqdalar. Diqqatga molik yana bir jihati shundan iboratki, Ibn Xaldun kabi Ibn Arabshoh ham Amir Temurga naqadar salbiy nazar bilan qaramasin, har holda, uning shaxsini munosib baholadi: “70 yoshli Temurning fikrlari hali ham qat'iy, jismoniy jihatdan kuchli va baquvvatdir...-deb yozadi Ibn Arabshoh. –Istehzo va sohtalikni yoqtirmaydi, baxsiz voqea ro'y berganda g'amga botmaydi, doim sergak va mardona turadi, uning oldida hamma itoatkor bo'lib qoladi va hurmat bajo keltiradi. U mard va jasur odamlarni yoqtiradi...U masalaning mohiyatini darrhol payqab oladigan mohirbahschi edi...u farosati bilan haqgo'y – yolg'onchini darrov farqlar edi, samimiy maslahatlarni soxta nasixatgo'ylardan farqlar edi”.¹ Lekin shunday bo'lsada, Ibn Arabshohning faqat o'z ko'rganlari haqida yozganlari

¹ Ibn Arabshoh.“Ajoyib al – maqdur fi tarixi Taymur”.(Amir Temur tarixi)1-j.T.,1992.4-bet.

¹ O'sha asar.25-bet.

ishonchga sazovor. Birovlardan eshitib yozganlari esa ko'pincha uydirma va hatto afsonadan iborat. Muallif asarni yozishda birorta ishonchli manbaga asoslanmagan.

“Ajoyib al –maqdur fi axboriy at –Taymur” asarining qo'lyozma nusxalari Fransiya, Misr, Suriya, Turkiya va Rossiya kutubxonalarida saqlanmoqda.

Matni Leyden (Gollandiya), Qohira (Misr), Kalkutta(Hindistonda) da chop etilgan. Undan ko'pgina parchalar lotin (S.N . Manger), fransuz (P. Vatye), ingliz(I.I. Sanders), rus(A. Y. Shimitd) tillarida nashr etilgan. O'zbek tilida ikki jildan iborat kitobda (U. Uvatov) chop qilingan.

Ibn Arabshoh bayon etgan yana bir ma'lumot diqqatga sazovordir. Muallifning yozishicha, Amir Temur zamonida (albatta, ijtimoiy tuzum, diniy axloq va rasm – rusmlar doirasida) xalq ommasi sohibqiron amri bilan o'tkazilgan barcha katta bayram va ziyofatlarda ishtirok etadi.temur shaharda bo'lmagan vaqtlarda uning saroyidagi katta bog'larda Samarqandning aholisi bemalol kiraverardi. Ibn Arabshihning dalolat berishicha, podshoh oilasidagi katta bayramlar sharafiga Samarqand ahlini har xil to'lovlardan ozod qilish odati ham amal qilar edi.

XV asrda yashagan arman tarixchisi Foma Mesopesining asari ham Amir Temurga ashaddiy dushman o'rduga mansub manbalar kitobiga kiradi. Ammo undan ham bazi bir etiborga loyiq ma'lumotlar topsa bo'ladi(12).

Amir Temur va uning sohibi toj farzandlari tarixi yana bir yirik tarixshunos olim –Muhammad Ibn Xovandshoh ibn Muhammad (u qo'shimcha Mirxond bilan mashhur) tarafidan yozilgan.

Mitxondning bu asari ”Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (” Payg'ambarlar podshohlar va xalifalarning tarjimayi holi haqida jannat bog'i”) nomi bilan mashhur bo'lib yetti jildan iborat. Asarning yrttinch jildi (1467 yilgacha bo'lgan voqealar), muallifning betobligi va zamonaning nosozligi tufayli, nihoyasiga yetmay qolib ketgan. O'ziga xos jug'rofiy qo'shimcha bo'lgan asar xotimasi va yozilmasdan qolgan qismlar olimning nabirasi Xondamir tomonidan oxiriga yetkazilgan. Alisher Navoiyning topshirig'i bilan yozilgan bu asar umumiy tarix tarzidagi asardir. U dunyoning yaratilishi dan to 1523 yilga qadar Movaraunnahr, Eron va Musulmon Sharqidagi boshqa mamlakatlarda kechgan voqealar haqida hikoya qiladi. Asarning I –V jildlari termadir, so'nggi ikki jildi, aniqrog'i VI jildi XV asrning ikkinchi yarmi tarixini o'rganishga katta ahamiyatga ega. Unda Amir Temur va Temuriylar tarixi Sulton Boyqaro va uning avlodi zamonigacha, yani 1523 yilgacha bayon etilgan.

“Ravzat us-safo” ning qo’lyozma nusxalari Angliya, Turkiya, Hindiston, Eron, Rossiya, Yugoslaviya, Misr, Fransiya Tatariston, Armaniston, Tojikiston, Shivetsiya, Quddusi Sharif, Gollandiya va O’zbekiston kutubxonalarida uchratish mumkin.

Asar matni Hindiston va Eronda chop etilgan. Undan ayrim parchalar fransuz, shived, litin, nemis va boshqa tillarda tarjima qilinib, chop etilgan.

“Ravzat us-safo” ning usmonli turkcha va o’zbekcha tarjimalari ham bor. O’zbekcha tarjimasini Xivada Munis, Ogahiy va Muhammad Yusuf tarafidan amalga oshirilgan. ” Описание еюркских рукописей Института народов Азии” katalogi (Leningrad, 1965) tuzuvchilarning so’zlariga qaraganda, asarning Fozil Mulla Kichik tarafidan 1737 yili qilingan uyg’urcha tarjimasini ham bizgacha yetib kelgan.

Davlatshoh Samarqandiy (1435 -1495) ning ”Tazkirat ush –shuaro” (“Shoirilar zikrida”) asarida (1486 yili yozilgan) hatto maxsus tarixiy asarlarda uchramaydigan o’ta foydali ma’lumotlar mavjud. Bu asar moqaddima, xotima va yetti qismdan iborat. Temur va Temuriylar davrida o’tgan shoirilar (ularning orasida Temuriyzoda shoir ham bor), asarning VI –VII qismlarida asar xotimasida qayd etilgan tarixiy voqealar, Xuroson sarbadorlari haqida keltirilgan ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega.

Davlatshoh Samarqandiyning ”Tazkirat ush –shuaro” asari matni Bombay (1887), London (1901) va Tehron (1958) shaharlarda chop etilgan. Undan ayrim parchalar rus, fransuz, turk va nemis tillarida elon qilingan. Asarning inglizcha to’la nashri E.G. Braun tomonidan amalga oshirilgan. Uning o’zbek tilidagi tarjimasini 1900 yili Xivada Muhammad Rafi tarafidan amalga oshirilgan. Bitta qo’lyozma O’zR FA Sharqshunoslik intitutning kutubxonasida 7016-raqami ostida saqlanmoqda.

Movarounnahr va Xurosonda XV asr so’nggi choragi va XVI asr boshlaridagi ijtimoiy –siyosiy ahvoli Xondamirning ”Habib us-siyar fi axbor va afroz ul –bashar” (“ Inson xabarlarini va farzlarida do’sning tarjimai holi”) va Zahiriddin Muhammad Boburning ”Boburnoma”sida keng bayon etilgan.

Xondamir (1475/76 -1535) istedodli, sermahsul olim bo’lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asr –XVI asr birinchi choragidagi ijtimoiy –siyosiy va madaniy hayotiga bag’ishlangan o’nga yaqin yirik asar yozib qoldirgan. Ular orasida olimning ”Habib us-siyar fi axbor va afroz ul –bashar” asari alohida o’rin tutadi. Bu katta asar umumiy tarix tarzida yozilgan va uch jilddan iborat. Olim uni garchi 1524 yili yozib tomomlagan bo’lsada, lekin asar ustida yana ko’p yil ish olib bordi va 1529 yili uni poyoniga yetkazdi. Ushbu asarning 31 faqat bir qismi

–uchinchi jildning uchinchi va to‘rtinchi qismlarigina original bo‘lib, ularda katta daliliy ma‘lumot asosida Xuroson va Movarounnahrda so‘nggi Temuriylar: Sulton Ahmad, Sulton Muhammad va Husayn Boyqaro davri tarixi keng yoritib berilgan.

”Habib us-siyar”da boy tarixiy ma‘lumotlardan tashqari, etnografik(turk qavmlarida barlos, arfin, qipchoq, jaloyir, qo‘ng‘irot va boshqa mamlakat ijtimoiy –siyosiy hayotida tutgan o‘rni), ijtimoiy –iqtisodiy tarzdagi tarixiy (amirlar va suyurg‘ol egalarining davlat va jamiyatda tutgan o‘rni, soliq va jarimalar haqida) daliliy ma‘lumotlar, temiriylar davlatining ma‘muriy tuzilishi, Markaziy davlat apparati, katta kichik mansabdorlar va ularning huquq hamda vazifalari, mamlakatning madaniy hayoti, xususan olimlar, shoirlar, musiqashunoslar va xattotlarning hayoti va faoliyati haqida ham qimmatli ma‘lumotlar uchramiz.

Asardan ayrim parchalar ingliz, fransuz, o‘zbek va rus tillarida tarjima qilinib, nashr etilgan.

”Habib us-siyar” ikkita mukammal nashrining matni mavjud. Manbalar haqida so‘z yuritganda Temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Boburning jahonga shuhrat taratgan, o‘zbek tilida yozilgan ”Boburnoma”sini tilga olish joizdir.

Boburning ”Boburnoma”si va umuman bu ulug‘ insonning ilmiy -adabiy merosi jahon ilmiy jamoatchiligiga ma‘lum. Bu haqda ko‘p yozilgan. Shuning uchun han biz ”Boburnoma”da Movarounnahrning XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi ijtimoiy –siyosiy ahvoli haqida keltirilgan dalil –ma‘lumotlarinigina eslatib o‘tishni lozim topdik.¹

Zahiriddin Muhammad Boburning davr haqida keltirgan ma‘lumot va xulosalari o‘zining haqqoniyligi, mufassalligi bilan ajralib turadi. Masala shundaki, u bu voqea –hodisalarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, o‘zi guvohlik bergan. Bobur Temuriylar saltanatining inqirozi ular o‘rtasida birlik va yaqinlik yo‘qligidan, o‘zaro feodal kurash kuchayib ketganligidan, deb hisoblaydi.

”Boburnoma”da XV asr va XVI asr boshlarida Farg‘ona vodiysi, Toshkent va uning tevarak atrofi, Xo‘jand Samarqand va Xisor viloyatida istiqamat qilib turgan turk va mo‘g‘ul qavmlari, xususan duldoy, qipchoq, bahrin, charos, mo‘g‘ul, barlos, ming, cho‘g‘roq, mang‘it, o‘tarchi va Turkiston tevaragida ko‘chib yurgan qoraqo‘ylik, bahorgu qavmlari, ularning urf –odati haqida qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan. Bu ma‘lumotlar etnografik olimlar uchun, xususan o‘zbek, qozoq va Markaziy Osiyodagi boshqa turkiy xalqlarning etnik tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Z.M.Bobur.”Boburnoma”T.,2008,5-bet.

Asarda karvon yo'llari, Xuroson, Movarounnahr, Afg'oniston va Badaxshonning shahar va mustahkamlangan qishloqlari, memoriy yodgorliklari, o'sha yerlarda istiqomat qilib turgan xalqlar, ularning urf –odatlar va mashg'uloti haqida keltirilgan ma'lumotlar ham katta ahamiyat kasb etdi.

Bobur esdaliklarida o'zi bosib o'tgan yurtlarning tabiati, jug'rofiyasi, nabodot va hayvonot dunyosi haqidagi ma'lumotlar alohida o'rin tutadi. Bobur Temuriylar armiyasi haqida keltirilgan ma'lumotlar ham diqqatga sazovor.

Umuman olganda, "Boburnoma" serqirra asar bo'lib, u nafaqat tarixiy, balki jug'rofiya, botanika, iqtisodiyot sohasida ham qimmatli manbadir.

Asarning qo'lyozma nusxalari Buyuk Britaniya, Hindiston, Rossiya, O'zbekiston, Tojikiston va boshqa mamlakatlar kutubxonalarida saqlanmoqda.

Uning eski o'zbek tilidagi matni I.N. Ilmskiy (1857), A. Beverej (1905), S.Mirzayev va P. Shamsiyev (1960) tomonidan chop etilgan. Asarning forscha (1583), inglizcha(1826,1921), fransuzcha (1871,1986), usmonli turkcha (1943 - 1946, ruscha (1958) nashri "Boburnoma"ning eng yaxshi nashri hisoblanadi.

Amir Temur saroyida muhitni, u yerdagi tartib qoidalarni o'rganishda Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning "Kundaligi" katta ahamiyatga ega. Klavixo Amir Temurning xotinlari, kelinlari va nabiralarini ham ko'rgan, uning o'zi bilan uchrashgan, saroydagi hayotni, jannatmakon shaharni ko'rgan, kuzatgan. Shu sababdan uning "Kundaligi" Amir Temur davlatining ichki hayotini, uning Yevropa davlatlari bilan olib borgan munosabatlari tarixini o'ragnishda katta ahamiyat kasb etadi. Klavixoning "Kundaligi" da Amir Temurning kelib chiqishi, uning ota bobolari, Amir Temur va avlodi tasarrufida bo'lgan xalqlar va mamlakatlarning umumiy ahvoli, ularning 33 urf-odati haqida, shuningdek Sohıbqiron amri bilan barpo qilingan va o'sha paytda bunyod qilinayotgan mahobatli qasrlar, masjidı madrasalar, bozor rastalari, bog'lar haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Klavixoning "Kundaligi" eski ispan tilida 1582 yili Sevilya (Ispaniya)da bosilib chiqqan, oradan ikki asr o'tib, ini 1779 yili Amirolo, 1782 yili Antonio Sancho chop ettirgan. Bular orasida eng qimmatlisi 1582 va 1782 yillardagi nashrlardir. Asarni 1943 yili Madridda F. Lopes zarur izohlar bilan qayta nashr qildi.

Klavixoning mazkur asari rus tilida ham tarjima qilinib, 1881 yili N.I. Sreznevskiy, 1990 yilda esa I.S Mirokova tomonidan chop etildi. Keyingi nashr mukammal hisoblanadi.¹

Amir Temur davri tarixini tadqiq etishda, ayniqsa, Oltin O'rda, Turkiya va Bolqon mamlakatlarining XIV asr so'nggi choragi -XV asr boshlardagi siyosiy ahvolni o'rganishda bavaryalik Iogani Shiltbergerning "Sayohatnoma"si diqqatga sazovor. Bu asar XV –XIX asrlarda Yevropa mamlakatlarida shuhrat topdi. Shu davr mobaynida asar olti marta nashr etildi, shundan to'rttasi XV asrda, 1559 va 1859 yillarda esa nemis va ingliz tillarida chop etildi. I. Shiltbrger asarining ahamiyati Katimer, Devizak, Sen-Martin, Hammer-Purgstall kabi bir guruh Yevropalik sharqshunos olimlar tomonidan e'tirof etildi. Iogani Shiltbergerning "Sayohatnoma"sining jiddiy kamchiliklari ham yo'q emas. Buni o'z vaqtida muallifning o'zi ham e'tirof etgan. U bunday deb yozgan: "Ta'rif va tavsiflarim unchalik to'la emas. Chunki asirlikda bo'lganim sababli istaganimni ololmadim".

Asar bilan sinchiklab tanishish shuni ko'rsatadiki, unda Kichik Osiyo, Bolqon mamlakatlari va Oltin O'rdaning XIV asr 80 -90-yillaridagi siyosiy ahvoli haqida muhim dalil va ma'lumotlar mavjud.

Asarning XIV –XXIV boblari Amir Temur va uning Eron bilab Ozarbayjonda hukmronlik qilgan avloditarixiga bag'ishlangan. Xususan, XXIV bobda bu haqda ko'proq ma'lumot uchratamiz.

Yana ikki muhim asar: "Mu'izz ul-ansob" ("Hurmatli kishilarning nasabnomasi") va Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiyning "Mujmal Fasixiy" ("Fasixiy to'plami") xususida qisqacha to'xtalib o'tish joiz.

"Mu'izz ul-ansob" tarixchi Rashididdin (1247-1318)ning "Shuabe panjgona" asarining qisqartirilgan variantidir. "Mu'izz ul-ansob"ning muallifi yuqorida tilga olingan Hofizi Abro' deb faraz qilinadi. Hofizi Abro'"Shuabe panjgona"dan arablar, hindlar, xitoylar va farangiylarning kelib chiqishiga oid qismini chiqarib tashlagan va XIII –XIV asrlarda Movarounnahrni idora qilgan Chig'atoy avlodi, Amir Temur va Temuriylar shajarasini qo'shgan. Temur va Temuriylarning kelib chiqishini o'rganishda bu asar muhim qo'llanma vazifasini o'taydi.

"Mu'izz ul-ansob"ning bizgacha uchta nusxasi bizgacha yetib kelgan. Bulardan bittasi Turkiyada To'pqopi saroy kutubxonasida 2152-raqami bilan saqlanadi. U to'liq emas, Boysung'ur Mirzo "Albomi"dan olingan miniaturalari bor. Ikkinchisi Parij milliy kutubxonasida saqlanadi (tartib raqmi OR 467; to'liq

¹ Ru'i.Gonzales de Klavixo."Kundaligi".T.,2010 7-bet

emas). Va, nihoyat, Britaniya muzeyida saqlanib turgan nusxa (bezakli, XVII asr). Amerikalik taniqli sharqshunos olim J.Vuds shu nusxa asosida Amir Temur va uning to'rt o'g'li avlodining shajarsini tuzdi va kitob holda elon qildi.

Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiyning "Mujmali Fasixiy" asari o'ziga xos solnoma bo'lib, "dunyoning yarishi" dan muallifning zamonigacha Sharq mamlakatlarida, shuningdek Movarounnahr bilan Xurosonda bo'lib o'tgan muhim voqealar, mashhur kishilar, olimlar, shoirlar, davlat arboblari, rassomlar, bayon etilgan muhtasham binolar(masjid, madrasa, karvonsaroy va suv inshootlari) haqida qimmatli ma'lumot beradi. Bo'lib o'tgan voqealar asarda yilma-yil ko'rsatilgan, bu hol undan foydalanishni bir muncha yengillashtiradi.

"Mujmali Fasixiy"ning matni 1961 -1963 yillarda Eronda, uning rus tiliga qilingan tarjimasini (faqat ikkinchi qismi) Toshkentda 1980 yili chop etilgan.

Noma'lum muallifning "Dasturil amal" deb atalgan, aytarli mashhur bo'lmagan asari ham diqqatga loyiqdir. Chamasi, bu asar Movarounnahrda 1714 yilda yozilgan. Unda Amir Temur va Temuriylar saltanatining Bobur va uning o'g'li Humoyun zamonigacha bo'lgan qisqacha tavsifini uchratamiz.

Amir Temurga oid rus manbalari o'sha davrda kam uchrashi tabiiydir. Rossiya Amir Temur qo'lga kiritishga intilgan jahonshumul savdo yo'llaridan chetroqda turar edi. Amir Temurning salobatli nomi aholisiga yetib borgan bo'lsada, bu hol asosan Oltin O'rda xoni To'xtamishga qarshi yurishlar bilan bog'liq edi, chunki Rossiya Oltin O'rdaga siyosiy va iqtisodiy jihatdan qaram edi(13).

Moskvadagilar Amir Temurning Rossiya yerlariga ichkarilab kirib borishidan, Moskvaga yurish qilishdan xavfsiz edilar. Rus solnomalarida Amir Temur bevosita Moskvaga bormagan, deb hisoblanadi(14).

Ayni paytda Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" sida Amir Temur Moskvagacha borib, uning ichkarisi va tashqarisini olganligi, u yerdagi arboblarni asir qilganligi haqida aytiladi. Buni G'arb tarixnavisligi ham tan oladi (J.Sarton, K.E. Bosvort, B. Mans). Bu muammoga to'la aniqlik kiritish tarix fani oldida turgan vazifalardan biri hisoblanadi. Har holda rus tarixchilarining Amir Temur Moskvani ololmagan, chunki u Okaning narigi qirg'og'ida turgan Vasiliy Dmitriyevich boshchiligidagi rus kuchlaridan qo'rqqan degan gaplari haqiqatdan juda uzoqdir. Chunki u paytda Amir Temurni qo'rqita oladigan yoki cho'chitadigan kuchning o'zi yo'q edi. Demak, rus solnomalaridagi Amir Temur haqidagi ma'lumotlarda katta qusur bor va ular ishonarli emas.

Vaqt o'tishi bilan Amir Temur haqidagi og'zaki ma'lumotlar Rossiyaga tarqala boshlagan. XV asr boshlarida eski rus adabiyotining ertak tusidagi qissasi – o'ziga xos noyob yodgorligi yuzaga keldi. Boshqa ko'pgina rivoyatlar, afsonalar, rivoyatlar bo'lgani kabi, bu qissada ham to'qib chiqarilgan voqealar va sehrgarlik kuchiga soddadillarcha ishonch haqiqiy tarixdagi u yoki bu voqealar bilan g'aroyib tarzda chatishib ketadi.

Sohibqiron hayoti va faoliyatini yorituvchi asosiy tarixiy manbalarning qisqacha sharhi mana shundan iborat. Mazkur manbalar beniya ko'pligi va xilmaxilligi Amir Temurning jahon tarixidagi roli beqiyos ekanligidan va uning nomi g'oyat mashhurligidan dalolat beradi. Ulug' jahongirning hayoti va ijtimoiy – siyosiy faoliyatini o'rganishda uning qalamiga mansub "Tuzuki Temuriy" ("Temur tuzuklari") deb atalgan asarning qimmatini benihoya kattadir.¹

"Tuzuki Temuriy" (boshqa nomlari: "Malfuzoti Temuriy" – "Temuriyning aytganlari" va "Voqeoti Temuriy" – "Temur haqida xotiralar") o'ziga xos tarixiy asar bo'lib, unda Amir Temurning tarjimai holi va uning og'ir, xavf-xatarlarga to'liq faoliyatida yuz bergan voqealar, yirik davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida shuhrat topgan bu shahsning davlat va armiya tuzilishi hamda ularni boshqarish xususidagi fikr mulohaza va qarashlari o'z ifodasini topgan.

Asar dastlab eski o'zbek (chig'atoy turkiy) tilida yozilgan bo'lib, sharqshunoslar N.D.Mikluxo-Maklay, Ch. Ryo, X. Eto, Ch.A.Stori va boshqa mutaxassis olimlar so'zlariga qaraganda, uning bir nusxasi XVII asrgacha Yaman hukmdori Jafar podshoning kutubxonasida saqlangan. Asarga yozgan so'z boshisida "Tuzuki Temuriy"ni fors tiliga tarjima qilgan Mir Abu Tolib at-Turbotiy Arabistonning muqaddas shaharlari –Makkai mukarrama va Madinai munavvara ziyoratidan qaytishda Yamanga tushib o'tganligi va yuqorida nomi zikr etilgan hukmdor Jafar podshoning kutubxonasida turkiycha yozilgan bir asarni uchratib qolganligini, asar bilan tanishuv natijasida u Amir Temurning tarjimai holi bo'lib chiqqanini aytadi.

Lekin, afsuski, asl (eski o'zbekcha) nusxasi bizning zamonimizgacha yetib kelmagan, balki biron eski kutubxonaning bir burchagida yotgandiru, biz undan bexabardirmiz. Shunday bo'lsada, bir narsa haqiqat "Tuzuki Temuriy" dastavval eski o'zbek tilida (turkiychada) yozilgan va buni Sharq qo'lyozmalari kataloglarining barcha musanniflari guvohlik berib tiribdilar.

At –Turbotiy Arabistondan qaytishda Agrada hukmdor Boburiy Shoh Jahon (1628-1657) ning xizmatiga kirgan va o'shanda uning iltimosi bilan "Tuzuki Temuriy"ni eski o'zbekchadan fors tiliga tarjima qilib, mazkur podshohga taqdim

¹" Temur Tuzuklari",T.,1991.3-bet.

etgan. Bu haqda Hindistonlik mashhur tarixchi Abdulhamid Lahuriyning "Podshohnoma" kitobida muhim malumot bor.

Shoh Jahon tarjima bilan tanishib chiqib, unda ayrim noaniqliklar va kamchiliklar topgan hamda yirik olim va yozuvchi, Dekan viloyatining qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriy (1652 y. vafot etgan)ni huzuriga chaqirtirib, at-Turbatiyning mazkur tarjimasini mo'tabar asarlar, xususan Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" si va shunga o'xshash muhim asarlarga solishtirib chiqish va shu yo'l bilan tarjimdagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan. Xullasi kalom, Muhammad Ashraf Buxoriy Abu Tolib at-Turbatiyning tarjimasini xato va kachiliklardan xalos qilib, uni qunt bilan tahrirdan chiqargan, N.D. Mikluxo-Maklayning so'zlari bilan aytganda, Buxoriy sayi- harakati bilan asarning yangi, tuzatilgan tahriri paydo bo'ldi.

Lekin at-Turbatiyning mazkur tarjimasini o'sha Yaman hukmdori Jafar podsho kutubxonasiidagi ko'rgan nusxaga asoslanganmi yo asarning Hindistonda ham o'shanday turkiycha nusxasi bo'lganmi, buni bilmaymiz.

Nima bo'lganda ham, bu ikki olim: at-Turbatiy va Buxoriyning mehnati orqali "Tuzuki Temuriy" fors tilida bizning zamonimizgacha yetib keldi.

"Tuzuki Temuriy" XV-XIX asrlarda nafaqat oliynasab kishilar, balki butun jahon ilmi ahli o'rtasida shuhrat topdi. Asarning qo'lyozma shaklida ham, toshbosma shaklida ham jahonning deyarli barcha kutubxonalarida borligi, shuningdek ko'p tillarga –ingliz, fransuz, rus, urdu va hozirgi o'zbek tillariga uzluksiz tarjima qilib turilishi bunga isbot-dalildir. "Tuzuki Temuriy"dan nusxa ko'chirib tarqatish uzluksiz davom etib kelayotgani asarning hammaga manzur bo'lganligidan dalolat berib turibdi.

"Temur tuzuklarining" ning nashrlari ham anchagina. Masalan,uning forscha matni, tadqiqot va izohlar bilan (faqat "Tuzukot) qismi) 1783-yilda Angliyada mayor Devi tarafidan chop etildi . 1785-va 1891yillari mayor Devi nashri fotomexanika yo`li bilan Hindisyonida , so`ngra 1963-yilda Eronda chop etildi.

"Tuzuki Temuriy" ning bir qancha tillarga qilingan tarjimasini ham bor. Masalan, asarning inglizcha tarjimasini (faqat "Malfuzot" qismi) Amir Temurning tarjimai holi (uning 41 yoshgacha bayon etilgan) 1830 yili Anglyada mayor K. Styuart tarafidan , fransuzcha tarjimasini (faqat "Tuzukot" qismi) Langle tarafidan amalga oshirilib, 1787 yili Parijda chop etilgan. "Tuzuki Temuriy"ning Subxon Baxshi (Dehli, 1855) va Muhammad fazl ul-Haqq (Bombay, 1908) taraflaridan amalga oshirilgan urducha tarjimalari ham mavjud.

”Tuzuki Temuriy” to’liq ravishda Xorazm (Xiva)da Muhammad Yusuf ar-Rojiy tarafidan 1856-57 yillari va Paxlavon Niyoz Devon tomonidan 1858 yili o’zbekchaga tarjima qilingan. Ularning birinchisi ”Tuzuki Temuriy”, ikkinchisi ”Malfuzot” nomi bilan ma’lum. Har ikkala nusxa shu kunlarda Sant Peterburg shahrida M.E. Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasida saqlanmoqda.

Asarning eski o’zbek tiliga tarjimasining yana bir nusxasi ham bor, lekin u to’liq emas. Sohibqironning 39 yoshigacha bo’lgan davri voqealarning o’z ichiga olgan, xolos. Tarjima Qo’qon xoni Muhammad Alixon (1821/22-1858/59) ning tyopshirig’i bilan Xo’jand qozisi Nabixon Maxdum tarafidan amalga oshirilgan

Keyingi yillarda ”Tuzuki Temuriy” –ning hozirgi o’zbek tilida qilingan to’la tarjimalari paydo bo’ldi. Bu oliyjanob ish birinchi marta fors va arab tillari bilimdoni marhum Alixon to’ra Sog’uniy tarafidan bajarildi. Shundan keyin uning tuzatilgan to’la nashri sharqshunos Habibulla Karimatov tomonidan hozirlandi va kitob holiga keltirib nashr etildi. Ana shu ikkala nashrda ham ilgari yo’l qo’yilgan xato kamchiliklar (tarjimadagi noaniqliklar, tushirib qoldirilgan yerlar, shaxsiy, jug’rofiy va etnik nomlarni yozishdagi xatoliklar) imkoni boricha bartaraf qilindi; ayrim tarixiy voqealar, joylar va etnik nomlar izohlandi.

Asarning rus tiliga qilingan tarjimalari ham mavjud. Bularidan biri N.P. Ostroumov raxbarligida amalga oshirilgan nashrdir. Lekin mazkur nashrning jiddiy kamchiliklari bor. Tarjima forscha orginaldan emas, balki L.Langlening fransuzcha nashridan qilingan.

1968 yili I.M. Mo’minov qisqa so’z boshi bilan N.A. Ostroumov nashrini faksimile tarzida qayta chop ettirdi. Mazkur asarning N.S. Likoshen hamda V.A. Panov amalga oshirgan yana ikkita nashri ham bor. Lekin har ikkala nashr ham asarning Nabijon Maxdumning to’la bo’lmagan, faqat uning bir qismi -”Malfuzot” dan iborat nusxasiga asoslangan.

Endi ”Temur Tuzuklari” asarining muallifi va uning orginal yoki orginal emasligi haqida. Bu masala ko’pdan beri bahs –munozaralarga sabab bo’lmoqda. Masalan, ingliz sharqshunosi E.G. Braun bilan rus sharqshunos olimi V.V. Bartold ”Temur Tuzuklari” Amir Temur tarafidan yozilganligini inkor qilibgina qolmay, balki asarning orginalligiga ham shubha 40 bildirganlar. Lekin asarni sinchiklab o’rganilganda va uni Amir Temurning hayoti va ijtimoiy –siyosiy faoliyatiga bag’ishlangan mashhur asarlarga, xususan Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiylarning ”Zafarnoma” asarlarga solishtirilganda, bu davoning asossiz ekanligi ma’lum bo’ldi.

”Temur Tuzuklari” va uning jahun kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalari haqida batafsil ma’lumot keltirgan ingliz sharqshunos olimi Ch. A.Storiyning

mufassal katalogida "Temur Tuzuklari" Amir Temur tarafidan yozilganligi isbotlangan.

Asarning matni va inglizcha tarjimasini chop etgan mayor Devi va Uaytlar asarga yozgan so'z boshida "Temur Tuzuklari" Temurning o'z qo'li bilan yoki uning nazorati ostida yozilgan deb aytadilar. Mazkur so'zboshida yana mana bularni o'qiymiz: "Temurning o'zi yozgan tarixi faqat o'z avlodi uchun yozilgan. U qanday qilib hokimyatni qo'lga kiritgani, siyosiy va harbiy faoliyati haqidagi sirlar, uning boshqzrsh sanati kabilarni o'zi izohlab bergan".

Shamsiddin Somiyning o'ta qimmatli qwomusiy asarida ham "Temur Tuzuklari" Amir Temur qalamiga mansubligi aniq aytilgan. Bu asarda xususan bunday deyiladi: "Temur "Tuzukot" nomli qonunlar majmuasini yozgan va unda o'z tarjimai holini bayon etgan. Chig'atoy tilida bitilgan bu asar fors va Yevropa tilariga tarjima qilingan".¹

Mualliflik xususidagapirganda shini ham aytish kerakki Asmir Temur aslida ma'lumotli kishi bo'lgan. Ibn Xaldun, Hofizi Abro', Ibn Arabshoh, Sharafuddin Ali Yazdiy singari zamondoshlarining guvohlik berishicha, Sohirqiron keng ma'lumotli kishi bo'lib, tarix, fiqh (musulmon qonunshunosligi)ni va falsafani yaxshi bilgan. Ibn Xaldun yozadi: "aslida u (Amir Temur –muh.) o'ta aqilli, bilimdon, farosatli, ko'p bahslashadigan... kishi edi". "Temur, -deb yozadi Ibn Arabshoh, -olimlarga mehribon bo'lib, sayiddi shariflarni o'ziga yaqin tutadi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan tamom muqaddam ko'rardi... Ular bilan mazmunli bahs ham yuritar ediki, bahsida insofu hikmat bo'larardi"(34).

Hofizi Abro' asarida quyidagilarni o'qiymiz: " Temur turk va eroniylarning tarixini chuqur bilgan va amaliy jihatdan foyda keltiradigan har qanday ilmni: tibbiyot, ilmi nujum, astronomiya va riyoziyot(matematika) qadrlar edi. Ammo memorlikka alohida etibor bergan... Eng murakkab qurilish ishlarini yaxshi tushunar va bu ish xususida ko'p foydali maslahatlar berar edi..."(35).

Ilm -fanning qadriga yetgan, uning rivojiga sharoit yaratgan, shu bilan birga o'zi bilimli bo'lgan shunday odamlarning biron muhimasar yoza olishiga shubha bo'lishi mumkin emas.

U yoki bu asarning orginalligini tanqidiy tahlil, yani o'sha asarni o'ziga o'xshash asarlarga solishtirish yo'li bilan aniqlash mumkin. Agar "Temur Tuzuklari" ni Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning nomi yuqorida qayd etilgan asariga yoki Amir Temur haqidagi boshqa asarlarga solishtirib

¹Amir Temur jahon tarixida.T.,2000,205-bet.

ko'rsak, aytarli darajada xato kamchilik topmaymiz. Amir Temur ham, farzandlari ham bo'lib o'tgan tarixni, xususan, sulolalar tarixini yozishga alihida e'tibor berganlar.

Biz yuqorida at-Turbatiyning forsiy tarjimasini Shoh Jahon o'zi sinchiklab tekshirib chiqqanligi, uning topshirig'i bilan Muhammad Ashraf Buxoriy tarjimini boshqa mo'tabar asarlarga solishtirib chiqib, tuzatganini aytgan edik. Bu –Amir Temurdan qolgan odat, Masalan, Amir Temur o'z tarixini ishonchli manbalarga suyaniob yozishlarini talab qilgan va uni ortiqcha tarifu tafsiqlardan holi qilishni buyurgan.

Sharafuddin Ali Yazdiy yozadi: ” Baxshi va kotiblar mulku millat va arkoni davlat ahvolidan nimaiki bo'lsa barchasini aniqlab, to'la to'kis yozib borardilar. Har qanday voqea, o'zgartirish kiritmay, oshirmay, kamaytirmay yani aslida qan day kechgan bo'lsa, o'shanday ko'rsatib berilsin, deb buyrilgan.

Yana bir farq, ”Temur Tuzuklari” jahonga mashhur asar. Uning qo'lyozma nusxalari dunyoning deyarli barcha mamlakatlari (Hindiston, Eron, Angliya, Daniya, Fransiya, Germaniya, Armaniston, O'zbekiston va h.k) ning kutubxonalarida mavjud. Matni ko'p marta toshbosma usulida chop etilgan. Ingliz , fransuz, fors, rus va o'zbek tillariga tarjima qilingan.

”Temur Tuzuklari” Sohibqironning tarjimai holi, hayoti, davlati va qo'shinining tashkil topishini o'rganish uchun muhim manba bo'lib qolaveradi.

Amir Temurning ’Tuzuklar’ muallifi ekanligiga shubhani V.V. Bartold 1918 yilda chop etilgan ” Ulug'bek va uning davri” asarida bildirgan edi. U, Amir Temurning rasmiy istoriogarfyasi (tarixnavisligi)da Sohibqironning 1360 yilgacha bo'lgan hayitida ro'y bergan voqealar xususida hech nima deyilmasligi va ”Qozag'onning hukmronligi to'g'risidagi hikoyalarda Amir Temur ham, otasi Tarag'ay tilga olinmasligi ” to'g'risidagi o'z so'zlarini sharhlar ekan, jumladan, shunday yozadi: ” Amir Temurning mavhum tarjimai holi, ma'lumki, Amir Temurni ana o'sha hikoyalarning hammasiga kiritadi, shuning o'ziyoq mazkur asar qalbakiligining eng yaxshi isbotlaridan biridir. Agar Amir Temur chindan ham Qazag'on janglarida qatnashganida rasmiy tarix bu haqda yozgan bo'lur edi.

Lekin V.V. Bartold Amir Temur tarjimai holining ”qalbakiligi” to'g'risidagi o'z fikrini isbotlash uchun, yuqorida aytganlaridan bo'lak biron-bir dalil keltirmaydi. U, shuningdek, Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur uchun tuzilgan turkiy sherlar solnomasi muallifi to'g'risida keltirgan ma'lumotlarni ham asoslamay shubha ostiga olgan. O'sha muallif ko'p voqealar, ayniqsa faoliyatining ilk davridagi voqealar, hodisalar Amir Temurning o'z xoxishiga ko'ra solnomaga

kiritilmagan, chunki ularga kitobxonlar ishonmasdi, haqiqatdan uzoq bo'lib tuyilardi, deb yozadi.

Amir Temurning yoshligida bo'lib o'tgan voqea –hodisalarni qanday mulohazalar asosida solnomaga kiritishga rozilik berganligi to'g'risida biz hozir turli faraz va gumonlarga borishimiz mumkin. Lekin biz barcha e'tirof etgan Sharafuddin Ali Yazdiydek tarixchining aytganlariga ishonmasligimiz mumkin emas.

Bundan tashqari, Bartold, Amir Temur Qozag'onga –Markaziy Osiyoning Ikkidaryo oralig'i va Afg'onistonning shimoliy yarmini o'z ichiga olgan shunday yirik davlat hukmdoriga qanday qilib bunday yaqin bo'lib qolganligi, 1355 yilda hukmdor unga o'z nevarasini turmushga berganligi to'g'risida mutlaqo o'ylab ko'rmaydi. Agar Amir Temur Qozag'on hayotligida Movarounnahrning yirik harbiy–siyosiy arbobi bo'lmagan bo'lsa, nega 42 endi u 1360 yil yanvarida xon qarorgohiga ulus o'sha qismining hukmdori sifatida bir o'zi keldi ?

Bartold bu savollarni o'ziga ongli ravishda, jo'rttaga bermaydi, chunki agar ularga javob bersa, Amir Temurning 1355 -1360 yillarda Movarounnahrning eng buyuk arboblaridan bo'lganligini, "Tuzuklar" ning tarjimai hol qismida berilgan o'sha davrlarga oid voqealarning qalbaki emas, balki haqiqiyiligini, to'g'riligini o'z –o'zidan etirof etgan bo'lardi.

Ana shundan keyin 1920 yilda ingliz sharqshunosi E.G Braun V.V Bartoldni ro'kach qilib, "Tuzuklari"ni qalbaki deb ataydi, lakin, afsuski, u ham hech bir dalil-isbot keltirmaydi.

Bartold bu savollarni o'ziga ongli ravishda, jo'rttaga bermaydi, chunki agar ularga javob bersa, Amir Temurning 1355-1360 yillarda Movaraunnahrning eng buyuk arboblaridan bo'lganligini, "Tuzuklar" ning tarjimai hol qismida berilgan o'sha davrga oid voqealarning qalbaki emas, balki haqiqiyiligini, to'g'riligini o'z - o'zidan e'tirof etgan bo'lardi.

Ana shundan keyin 1920-yilda ingliz sharqshunosi E.G.Braun V.V.Bartoldni ro'kach qilib, "Tuzuklar"ni qalbaki deb ataydi, lekin, afsuski, u ham hech bir dalil - isbot keltirolmaydi. ¹

Keyinchalik V.V.Bartold o'zining 1928-yilda chop etilgan "Mir Alisher va siyosiy hayot" nomli asarida yana shu masalaga qaytib, Temur "Tuzuklar"i qalbaki bo'lib, XVII asrda Hindistonda bitilgan va ular Xvasrdagi Eron uchun mutlaq xos emas", deb yozadi. Mazkur asarda V.V.Bartol'd Frantsiya sharqshunosi L.Buveni va rus sharqshunosi M.Nikitskiyni ular Temur "Tuzuklar"ini tarixiy manbalar

¹ Amir Temur jahon tarixida.T.,2001.207-bet.

ro'yxatiga kiritganlari uchun tanqid qiladi. Bartold bu yerda ham o'z fikrini isbotlamaydi.

Orada ancha vaqt o'tganidan keyin ingliz sharqshunosi Ch.A Stori V.V.Bartol'd va E.G.Braunning yuqorida tilga olingan ikki asarini dastak qilib, "Tuzuklar"ga ham, "Tarjimai hol"ga ham "Qalbaki asarlar sifatida qaralyapti",- degan.

Shunday qilib, ko'rinib turibdiki, ikki ingliz sharqshunosining Amir Temurning "Tuzuklar" muallifi ekanligiga shubha bilan qarashi V.V.Bartol'dning asossiz fikrlariga asoslangan. Holbuki Evropa olimlarining asosiy ko'pchiligi Amir Temur "Tuzuklar" muallifi ekaniga mutlaqo shubha qilmaydi.

V.V.Bartol'dning Markaziy Osiyo xalqlarining o'rta asr tarixini o'rganish, tadqid etishdagi katta xizmatlarini e'tirof qilgan holda, shuni ham ta'kidlash kerakki, uning ayrim cheklangan fikr-mulohazalari o'z davridagi hukmron siyosatga hamohang aytilganligi shubhasizdir.

Bartold fikrlari yana shuning uchun shubha tug'diradiki, u Shoh Jahonda nega "Tuzuklar"ni o'zidan ikki yarim asr avval yashagan bobosi yozgan deb uqtirishga ehtiyoj tugilganini isbotlashga urinib ham ko'rmaydi. Shoh Jahonni bunday deyishga nima majbur qilgan, bundan u nima manfaat ko'rdi? Shoh Jahon asarida Hindistondan bu qadar uzoqda bo'lgan tarixiy voqeani zamon va makon o'lchovida qanday qilib tiklay olgan? Mo'tabar manbashunos hisoblanmish Bartol'd "Tuzuklar"ni manbashunoslik nuqtai nazardan tahlil qilishga ehtiyoj ko'rmay, siyosiy lashtirilgan fikr bildirishi achinarli holdir.

Ozbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan "Tuzuklar"ning sakkiz qo'lyozmasi (38,1503, 1989, 7783, 9386, 3717, 2730, 8201) tahlili shuni ko'rsatadiki, matn forscha bo'lishiga qaramay, unda XVII asrga emas, balki Xvasrning birinchi yarmiga xos turkiy so'zlar ko'p uchraydi. Bundan tashqari, harbiy tarixchilar (jumladan, M.M.Ivaninning) tadqiqodlari "Tuzuklar" davriga xosligini ko'rsatadi.

"Temur tuzuklari"ni o'sha zamon yozilgan boshqa tarixiy asarlar bilan, xususan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" si bilan solishtirib o'rganib chiqarilgan xulosa shuki, u Amir Temurning bevosita ishtirokida yozilgan asl va noyob asardir.¹

¹Amir Temur jahon tarixida.T.,2001.208-bet.

3. Nizomiddin Shomiyning “ Zafarnoma” asari

muhim tarixiy manba sifatida

Markaziy Osiyo , ayniqsa Mohavounnahr va Xuroson xalqlari tarixida XIV – XV asrlar ulug’ sarkarda , davlat arbobi Amir Temur va uning avlodi – Temuriylar sulolasi hukmronligi bilan bog’liq katta siyosiy o’zgarishlar va ayni bir vaqtda iqtisodiy va madaniy , fanniy va ma’naviy – jamiyat hayotining barcha sohalariga daxldor rivojlanishlar davri bo’ldi . Shuning uchun ham bu davrni dunyo ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tarixidagi buyuk yuksalish davri deb baholab kelinmoqda .

Hozirgi kunlarda bu tadqiqotlar uchun manba xizmatini o’tab kelayotgan tarixiy asarlarni yaratish ham o’sha davrlardayoq keng rivoj topib , XV asrda va undan keyin ham taniqli muarrixlar tomonidan davom ettirildi . Bu asarlarda sohibqiron Amir Temurning Mohavounnahrda markazlashtirilgan davlatni barpo etish uchun olib borgan kurashlari , harbiy yurishlari , davlatchilik siyosati hamda xalqaro diplomatik va savdo aloqalarini mustahkamlashga , dehqonchilik va hunarmandchilikni , madaniy qurilishlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlari qalamga olingan .

Ana shunday yozma yodgorliklarining eng dastlabkilaridan biri Amir Temurning bevosita topshirig’i bilan mohir adib va tarixnavis Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan “ Zafarnoma ” nomli asardir .¹

Asar muallifi Nizomiddin Shomiyning hayoti va ijodi haqida o’rta asrlar va hozirgi zamon adabiyotida va hozirgi zamon adabiyotida ham ma’lumotlar juda oz . Tug’ilgan yili no’malum . Uning kelib chiqish joyiga nisbat berilib , Shomiy yoki Shanbiy (Shanbi G’ozoniy) ni sbasi bilan ham atalishiga qaraganda u aslida Tabriz chekkasidagi Shanbi G’ozon deb atalgan mavzedan bo’lgan, deb taxmin qilish mumkin .

Muallifning o’zi haqida “ Zafarnoma ” da keltirilgan ma’lumotlari uning Amir Temur bilan uchrashuvlari va asarning yozilish tarixi haqidagi ayrim qisqa – qisqa lavhalardan iborat , xolos . Jumladan , movlono Nizomiddin 1393 yil avgust oyida Amir Temur askarlari Bog’dod shahrini zabt etganliklari haqidagi voqealarni qalamga olar ekan , uning o’zi birinchi bo’lib shahardan chiqqanligi , hazrat Sohibqiron bilan uchrashuv , suhbatda bo’lganligini eslatib o’tadi . (“Zafarnoma ” , Tauer nashri , 1-jild , 139 – bet) . Demak , u mazkur 1393 yili

¹ Nizomiddin SHomiy.”Zafarnoma”.T1996,3-bet.

Bog'dodda yashagan ana uning Amir Temur bilan birinchi uchrashuvi ana shu yili sodir bo'lgan .

Nizomiddin Shomiyning Sohibqiron Amir Temur bilan ikkinchi uchrashuvi esa “ Zafarnoma ”ning 1400 yil voqealari bayon etilgan varaqlarda uchraydi . Bu yili oktyabr oyida Amir Temur Shom (Suriya) tebrasida joylashgan Halab shahrini qamal qilgan . Muallifning yozilicha , u o'sha vaqtda Hijoz tomon safarga ketayotganida shahar muhofazachilari shubhalanib , uni to'xtatganlar va qal'a ro'parasidagi bir binoga qamab qo'yganlar . Bu yerdan u qal'aning zabt etilishini o'z ko'zi bilan ko'rgan . Shu davr muarrixlaridan bo'lgan Hofizi Abro'ning yozicha , Hofizi Abro'ning yozilishicha , jangdan so'ng Jalol ul-Islom nomli amir Nizomiddin Shomiyni Amir Temur huzuriga olib kelgan , hazrat Sohibqiron unga iltifotlar ko'rgazib, yaxshi qabul qilgan.

Nizomiddin Shomiy hayotining so'ngi yillari qanday kechganligi ham ma'lum emas . Bu haqda faqat taxminlar asosidagina xulosa chiqarish mumkin . Jumladan, Hofizi Abro' 1412 yil voqealarini bayon etar ekan , marhum Nizomiddin Shomiyni sifatida tilga oladi. Yana shu kabi qiyosiy ma'lumot : agar eronlik manbashunoslik olim Muhammad Taqi Donishpajuhning taxminiy so'zlari e'tiborga olinsa, muarrix Nizomiddin Shomiy va 1400 yili Xalabda yozilgan Muhammad payg'ambar va o'n ikki imom tarjimai holiga bag'ishlangan bir asar muallifi Nizom al- Voiz deb tanilgan Ali ibn Muhammad ikkalasi bir muallif bo'lib chiqadi. U holda mazkur asarning 812 (1409) yili ko'chirilgan nusxasida qayd etilishicha , Nizom al- Voiz (demakki , Nizom Shomiy) bu vaqtda hayot bo'lmagan.¹

“ Zafarnoma ” asarining yozilishi tarixiga kelsak , shuni ta'kidlash lozimki , mavlono Shomiyning o'zi bergan ma'lumotlariga ko'ra 804 hijriy yili(milodiy 1401 yil 1 avgust oralig'i) Amir Temur uni huzuriga chorlab , o'z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga undagan . Sohibqiron o'sha davrga qadarmunshiy va kotiblari tarafidan tuzilgan bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan . Yozilajak asar avom xalqqa tushunarli ,sodda, ravon tilda va ayni paytda marifatli kishilar e'tiboriga ham loyiq tarzda yozilishi lozimligini uqtirgan . Mavlono Nizomiddin asarni uning ko'nlidagidek uslubda yozishni o'z zimmasiga o. Bu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki , AmirTemur bunday masuliyatli ishni ishonch bildirib Shomiyga topshirishi mavlono Nizomiddin o'z davrining bilimdon fuzalolaridan va zukko adiblaridan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Tabiiyki ,bu uchrashuvdan so'ng Nizomiddin Shomiy saroy tarixchisi sifatida AmirTemurning keyingi barcha yurishlarida unga hamrohlik qilgan . Bunga dalil “ Zafarnoma ”ning o'zida uchraydi: 806 yil muharram oyida (1403

O'sha asar.5-bet.

yiliyul - avgust) Gurjistondagi Birtsqal'asini zabt etilishini yozar ekan , Nizomiddin Shomiy bu voqeani o'zi kuzatganligini yozadi . Yana bir dalil shuki,Shomiy yurishlardan birida iydi ramazon munosabati bilan yig'ilgan jamoaga vaz aytib, so'ng peshnamozlikni ado etgan. Bu voqeani mashhur tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiy shunday tavsiflagan: “ Shu yili Ramazon iyidini (806 yil 1 shavvol – 1404 yil , 12 –aprelda) hazrat Sohibqiron Obi Og'liq yoqasida kutdi . Zamonaning balog'atli fuzalolaridan bo'lgan va hazrat Sohibqironning ezguliklari va faxrli ishlaridan bir qanchasini bayon qalami bilan ifodalagan mavlono Nizomiddin Shanbiy iyd xutbasining qiroatiga va namoziga kirishdi ” (Yazdiy ,“ Zafarnoma ” ,Toshkent , 1972 , 449 b-450 avaraqlar).

Taxminan shu vaqtda yohud bir necha hafta keyin mavlono Nizomiddin Sohibqiron yurishlarini 1404 yil bahorigacha yetkazib , asarni tamomlagan va uni Ozarbayjondan Samarqandga qaytish taraddudida bo'lgan AmirTemurga taqdim etadi . Bundan keyingi AmirTemur vafotigacha (1405 yil 18 fevral) kechgan voqealar keyinroq muarrix Hofizi Abro' tomonidan “ Zafarnoma ”ga “ Zayl” – “ Ilova ” tarzida yozilgan .

Nizomiddin Shomiy “ Zafarnoma ” asarini yozish uchun qanday manbalardan foydalangan ? Afsuski , bu borada na muallifning o'zi asarida biror ma'lumot keltirgan va na zamondoshlari asarlarida bu haqida yozilgan. Lekin “Zafarnoma ” asarini tadqiq etish natijasida Shomiy quyidagi manbalardan foydalanganligini taxmin qilish mumkin :

a) Amir Temurning munshiylar va kotiblari nazm hamda nasrda forsiy va turkiy tillarda yozgan kundaliklar va bitiklar . Bu manbalar bizning davrimizgacha yetib kelmagan;

b) Muallifning o'zi 1400-1404 yillar davomida Amir Temur yurishlarida shohidi bo'lgan va yozib olgan voqealar ;

c) Amir Temurning Hindistonga yurishi bilan bog'liq voqealar kundalik tarzida bayon etilgan G'iyosiddin Alining “ Ro'znomayi g'azovoti Hiasari .

Shuni ham eslatib o'tmoq lozimki , XV asr mualliflari Fasih Xavofiy , Sharafiddin Ali Yazdiy , Xondamir , va boshqalarning asarlarida Sohibqiron hayotligidayoq Shomiydan boshqa mualliflar tomonidan ham Amir Temurga bag'ishlab bir necha tarixiy va abadiy asarlar yaratilganligi qayd etilgan . Masalan , Kermonli adib Shayx Mahmud Zangiyi Ajam doston Shaklida “Jo'shu xuro'sh ” nomli asar yozgan . U 806 (1403 – 1404) yili Gurjistonda bo'lgan Amir Temurga dostonni taqdim etmoq uchun ketayotib , ko'prikdan yiqilib halok bo'lgan. Uning o'g'li mavlono Qutbiddin otasining asariga “Zayl ” (“ Ilova ”) yozib , Temurga

topshirgan (Yazdiy , “ Zafarnoma ”, 1972 yil Toshkent nashri , 439 b varaq), Xondamirning “Habib ul-siyar” asarida ham (1333 hijriy shamsiy , Tehron nashri 3-jild , 290 –bet) Sarafiuddin Xuttaloni ismli olimning Temurga bag’ishlab turkiy tilda bir asar yozganligi eslatiladi va hokazo . Ammo bu yana boshqa asarlarning bizga yetib kelgan-kelmaganligi hozircha noma’lum . Nizomiddin Shomiy esa o’z davrida ularning mavjud bo’lganligini “ Zafarnoma ”ning biror sahifasida ham eslatib o’tmagan .

“ Zafarnoma ” tarixiy asar sifatida XIV va XV asr boshida Temur va Temuriylar hukmronligi davridagi O’rta Osiyo , Oltin O’rdaxonligi, Ozarbayjon , Eron, Afg’oniston , Iroq , Suriya , Misr , Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni o’z ichiga olgan. Asar muqaddimasida AmirTemur tarix sahnasiga chiqqan 1360 yilga qadar O’rta Osiyoda hukmronlik qilgan Chingiziy hukmdorlar haqida qisqa ma’lumot berilgan. So’ngra Amir Temur XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshida qilgan yurishlarining batafsil bayoni keltirilgan . Asar 1404 yil mart oyida (806 yil ramazon oyi) Amir Temur Ozarbayjonda Arron Qorabog’ida turganligining bayoni bilan yakunlanib , uning vafoti (1405 yil 18 fevral)gacha , ya’ni bir yilcha vaqt ichida sodir bo’lgan kechmishlar yoritilmay qolgan .

Nizomiddin Shomiy asarida keltirilgan voqealar silsilasi keyingi tarixnavislar tomonidan davom ettirilgan . Jumladan , temuriylardan Shohrux Mirzo (vafoti 1447 yil)ning tarixnavisi Hofizi Abro’ avvalo , yuqorida eslatilganidek ,“ Zafarnoma ”ga “Zayl” (ILOva) yozib, uni Temur vafotigacha yetkazgan , so’ng esa , o’zining “Majmua ” (To’plam) nomi bilan atalib kelinayotgan tarixiy asarni yozar ekan , Shomiyning “Zafarnoma” sidan ham foydalangan va voqealar tizmasini Shohruh Mirzo hukmronlik qilib turgan 1420 yilgacha davom ettirgan . Keyinroq 1423 yili Shohrux Mirzoning O’g’li Boysung’ur Mirzo(1433yili vafot etgan) farmoni bilan Hofizi Abro’ to’rt jilddan iborat “ Majma ut-tavorixi sultoniya ”(Sultonga bag’ishlangan tarixlar yig’indisi) deb atalgan asarni yozishga 48 kirishgan va uni 1427 yil voqealarini ng bayoni bilan tugatgan . Asarning to’rtinchi jildida Amir Temur va Temuriy shahzodalar tarixi aks etirilib unga Boysung’ur Mirzoga bag’ishlanganligini ko’rsatish uchun “Zubdat ut-tavorixi Boysung’iriy ” (Boysung’irga atalgan tarixlar sarasi) deb nom bergan .

Amir Temur va Temuriy shahzodalar davrini o’rganishda muhim hisoblangan yana bir tarixiy asar haqida to’xtalib o’tish lozim . Bu Temuriy Umarshayxning o’g’li Iskandar Mirzo (Fors va Isfahon hukmdori 1415 yili qatl etilgan) nomiga bag’ishlangan , 816 (1413 -1414) yilda yozib tugatilgan , V.V.Bartold dastlab muallifi va nomini aniqlay olmagani uchun shartli ravishda “ АнонимИскандера”deb nomlagan tarixiy asardir . V.V.Bartold keyinroq

Davlatshoh Samarqandiyning tazrikasidan asar muallifining ismi Muiniddin Natanziy ekanligini , asarning “Muntaxab ut – tavorixi Muiniy ” deb nomlagan bir qo’lyozma nusxasi Parij milliy kutubxonasida saqlanayotganligini aniqlangan. Ba’zan bu asarning manbalaridan biri sifatida Shomiyning “Zafarnoma”si ko’rsatiladi . Lekin ,V.V.Bartold temuriylarga oid yozma yodgorliklarni puxta o’rganish natijasida bunday fikrni noto’g’ri deb topgan va Natanziy o’z asarini yozishda turkiy tilda uyg’ur yozuvida mavjud bo’lgan bitiklarga suyangan bo’lsa kerak , deb taxmin qilgan .

Nizomiddin Shomiyning“ Zafarnoma ” asari o’zida jamlangan tarixiy ma’lumolarning ishonchliligi bilan XV-XVI asrlardanoq boshqa asarlar uchun bosh manbalardan biri bo’lib xizmat qilgan . Sharafuddin Ali Yazdiy (1454 yili vafot etgan)ning 1419 -1425 yillarda yozilgan “ Zafarnoma ” , Abdurazzoq Samarqandiy (1413 – 1482 yillarda yashagan)ning “Matlai sa’dayn va majmai baxrayn” (Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo’shilish joyi) , Fasih Havofiy (taxminan 1442 yili vafot etgan)ning “Majmali Fasihiy” asari, Muhammad Fazlulloh Musaviy (XV asr)ning “Tarixi Hayrot ” , Hotifiy (XV asr)ning nazmda bitilgan “Temurnoma” asari , Mirxond (1433-1498 yillar)ning “Ravzat us-safo” (Poklik bog’i) , Xondamir (1475 1535 yillar)ning “Habib us-siyar ” va boshqa bir qator asarlar shular jumlasidandir . Ularning har birida ilgari asarlardagi voqealar har xil tahrirlarda qaytarilishi bilan birga boshqalarida uchramaydigan voqealar tafsiloti ham mavjud .

Sohibqiron Amir Temur davlatining XIV asr oxirgi choragi va XV asr boshlaridagi tarixiga doir asarlar sirasiga IbnArabshohning “Ajoyib al – maqdur fi tarixi Taymur ”, Ispan sayyohi Rui Gonzales de-Klavixoning safar xotiralarini ham kiritish mumkin . Lekin ,ular xotiralar ,safari taassurotlari sifatida rasmiy 49 solnomalardan uslub va mazmun jihatidan farq qiladi va tarixiy manbalar orasida o’ziga xos o’ringa ega .

Shomiy “Zafarnoma ”sining faqat ikki qo’lyozma nusxasigina saqlanib qolgan . Birinchisi , AmirTemurga taqdim etilgan qo’lyozmaning 1425 yilda ko’chirilgan nusxasi bo’lib u Istanbuldagi “ Nuri Usmoniya ” masjidi kutubxonasida 3367 inventar raqamida saqlanmoqda . Ikkinchisi , muallif tomonidan AmirTemurning nabirasi Mirzo Umar bahodir ibn Mironshoh (vafoti 1409 yil)ga taqdim etilgan qo’lyozmadan 1434 yili ko’chirilgan nusxa bo’lib , u Londondagi “Britaniya muzeyi” kutubxonasida 23980 inventar raqami bilan saqlanib kelmoqda.

Taniqli matnshunos olim Feliks Tauer mazkur qo’lyozmalarda ayrim noqisliklar bo’lgani sababli , ularni Hofizi Abro’ning “Zubdat ut-tavorix”I bilan solishtirib tadqiq etish asosida “ Zafarnoma” ning ikki jilddan iborat ilmiy –

tanqidiy matnini nashr ettirgan (1937 yil , Praga va 1956 yil , Praga) . Birinchi jildiga faqat “ Zafarnoma ” ning matni kiritilgan.Ikkinchi jildda esa noshirning so'zboshisi , Hofizi Abro'dan qo'shimchalari va nusxalardagi farqlar berilgan .

Asar keyingi vaqtlarda Sharq va G'arb olimlari tomonidan o'rganilib , undan qisqartirib tarjimalar qilingan. Jumladan , 1949 yili Anqarada Nejoti Lug'ol ismli olim F. Tauer nashri asosida asarni qisqartirib turk tiliga o'g'irgan .Undan tashqari , sharqshunoslikda oid bir necha kitoblarda bu asardan terma tarjimalar e'lon qilingan .

1969-1972 – yillar orasida Shomiyning “ Zafarnoma ”sini O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akdemiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Feliks Tauerning nashri asosida birinchi marta o'zbek tilida to'la nashrga tayyorlashga kirishilgan va bu ishni institut katta ilmiy xodimi Yunusxon Hakimjonov (1974 yili vafot etgan) o'z zimmasiga olgan edi . Biroq o'sha yillarda “Temur shaxsiga sig'inish ” masalasining ko'tarilishi bilan Amir Temur davriga doir asarlarni chop etishning iloji bo'lmay qolgan va shu sababli Y. Hakimjonov tarjimasini dastlabki qoralama holida qolib ketgan.¹

Keyingi yillarda Respublikamiz mustaqillika erishish sharofati bilan qadriyatlarimizni , merosimizni chuqur o'rganish , tariximizni haqqoniy yoritish uchun zaruriy yozma manbalarni chop etib , ommalashtirish borasidaO'zbekistonFanlar Akdemiyasi Sharqshunoslik institutida amalga oshirilayotgan ishlar qatorida Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy manbalarini ham o'zbek tilida nashrga tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda . Ulardan biri -Nizomiddin Shomiyning “ Zafarnoma ” asari bo'lib , nashrga Y.Hakimjonovning tarjimasini asos qilib olindi .

4. Rui Gonzales de Klavixoning Samarqandga- Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406yillar) da Amir Temur talqini

Klavixo“Kundaligi”sohibqiron Amir Temurning hayoti va olamshumul tarixiy xizmatlariga doir ,shak-shubhasiz , bebaho tarixiy manbalardan biridir. “Kundalik” Kastiliya va Leon qiroli Enriko III (1390-1407) tomonidan Amir Temur huzriga yo'llangan Rui Gonsales de Klavixo boshliq elchilar bosib o'tgan ulkan va mashaqqatli yo'l xotiralaridan iborat bo'lib , u ispan elchisining 1403-1406 – yillarda O'rta Yer dengizi sohillaridagi mamlakatlarda , Turkiyada , Kavkaz orti yerlarida , Eronda xususan , Amir Temur saltanatida hamda bevosita

¹A.Madraximov. G.Fuzailova.Manbashunoslik.T.,2008,55-bet.

uning saroyida ko'rgan bilganlarini, bu davrda elchining o'z qalbida kechgan turli tuman o'y fikrlarini aks ettirgan.¹

Shu o'rinda kitob muallifi - Klavixoning o'z taqdiri, hayot yo'li va faoliyati to'g'risida ham qisqacha bo'sada, ma'lumot berib o'taylik. Rui Gonzales de Klavixo Kastiliya (Ispaniya) dagi badavlat va nufuzli oilada tug'ilib, voyaga yetgan. Otasi ham, o'zi ham qirol saroyida katta mansablarga turganlar. Uning ajdodlari Enriko IIIning ota – bobolari – Enriko II va Xuan I ning saroyida xizmatda bo'lishgan.

Ma'lumki Amir Temur davrida O'rta yer dengizi hududidagi Pireney yarim oroli (Ispaniya) bir necha qirolliklarga bo'linib ketgan edi. Ular ichida qudratlisi Kastiliya qirolligi edi va keyinchalik Ispaniya shu qirollik atrofida birlashdi. Alohida takidlab aytgimiz keladiki, bu birlashuvda Kastiliyaning Yevropa davlatlari orasida birinchiildan bo'lib Amir Temur saltanati bilan o'rnatilgan elchilik munosabatlari shak-shubhasiz xayrli omillardan biriga aylanadi. Tarixdan ma'lumki Amir Temur davrida Ispaniya va boshqa Yevropa davlatlari Usmonli turk imperiyasi xurujlaridan taxlikaga tushib qolgan edi. Sohibqiron bobomiz tarix sahnasiga chiqib avval ona zaminni mo'g'ullar asoratidan keyin Rossiya va Ukrainani Oltin O'rda taxdididan xalos etdi.

Usmonli turk imperiyasi taxdidi ostida yashagan Yevropa davlatlari Amir Temur qudratiga najot bilan qaray boshladi. Angliya, Fransiya, Ispaniya, Genuya, Vizantiya singari davlatlarning hukmdorlari Amir Temur bilan iqtisodiy savdo va siyosiy munosabatlarni o'rnatishga kirishib ulug' jahongir huzuriga birin ketin o'z elchilarini jo'natdilar. Jumladan, Kastiliya va Leon qirolli Don Enriko III 1402 yilda, yoz oylarida

o'zining birinchi elchilarini- Payo de Sotomayor va Ernan Sanches Palasuelosni Amir Temur Turkiyada ekanida huzuriga safarbar etdi. Sohibqiron Ispaniyaning ana shu birinchi elchilariga alohida hurmat ko'zi bilan qarab, ular o'z vataniga qaytar ekan, ikki davlat o'rtasida do'stona aloqalarni mustahkamlash maqsadida o'z saltanatining elchisi Xo'ja Muhammad qozi al-Keshiyni ham Ispaniya elchilariga qo'shib Enriko III huzuriga yo'lladi. (bu zot o'sha davrdagi Ispaniya rasmiy hujjatlarida Al- Qoziy Klavixo asarida Magomet Al – Kagi deb ko'rsatilgan – M.S) shu tariqa buyuk bobomiz vatanimiz bilan Yevropani bog'laydigan elchilik aloqalariga asos soldi. Keshning yana bir ilg'or namoyondasi mavlono Abdulloh Keshiy Amir Temur tomonidan Misr sultoni Faraj huzuriga elchi sifatida jo'natilgan.

1403 yilda Enriko III Amir Temur saltanatining Usmoniylar imperiyasi ustida erishgan g'alabasidan so'ng zudlik bilan Amir Temur huzuriga ikkinchi

¹ Rui Gonzales de Klavixo."kundalik" T.2010,3-bet.

elchilar guruhini safarbar etdi . 13 kishidan iborat bu guruhga Enriko III saroyida soʻzga chechan va otashin notiq sifatida tanilgan Rui Gonsales de Klavixo boshchilik qildi . 1403 yilning 22 may kuni Janubiy Ispaniyaning Kadis shahridagi bandargohidan yoʻlga chiqqan elchilar, oradan 15 oy oʻtib, 1404 yil avgust oyi oxirida Samarqand atrofidagi Amir Temur bogʻlaridan biriga yetib keldilar va 8 sentabr kuni Sohirqiron tomonidan qabul qilindi. Keyinchalik Klavixo Ispaniyaga qaytgach, oradan 1 oy oʻtib, oʻz “Kundaligini” safar hisboti tarzida tayyorlab Enriko III ga taqdim etdi . U Toledo shahrida qirolning vasiyatnomasini tuzishda ham ishtirok etgan masul mulozimlardan biridir .

Qirol Enriko III 1407 yilda vafot etgandan keyin, Klavixo davlat ishlaridan istefoga chiqib Kastiliya poytaxti Alkala de Ennaresdan ona shahri Madritga qaytib keladi va umrining oxirigacha shu shaharda istiqomat qiladi. U 1412 yilda vafot etib, Madrid shahrining avliyo Fransisko cherkovi hududidagi ota - bobolari xilxonasiga dafin etiladi .

Shu oʻrinda yana bir diqqatga sazovor izoh : Madridning markaziy koʻchalaridan biriga Rui Gonsales de Klavixo nomi berilgan . Bu koʻcha hozir ham mavjud , hamon gavjum hamda unda serfayz hayot hukmron . Elchilar tarixda koʻp oʻtgan, ammo Klavixodek, nomi koʻchalaar peshtoqida abadiylashtirilgan

elchilar kam . Bu- Ispan xalqini Amir Temur saltanati bilan doʻst aylagan oʻz bobokalon elchisiga chuqur ehtiromning dalolatidir. ¹

Shu koʻcha nomi bilan bogʻliq yana bir tarixiy muhim voqeani albatta, faxrlanib tilga olamiz . Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov 2003 yilning 27-29 yanvar kunlarini Ispaniya qirolligiga qilgan davlat safari paytida davlatimiz rahbarining Ispaniyada muhim uchrashuvlaridan biri – Madrid shahri meri Xose Mariya Al`vares Del Manzino bilan suhbat - aynan Rui Gonsales de Klavixo nomi bilan bogʻliq ana shu koʻchadagi muhtasham binoda boʻlib oʻtdi . Buning oʻzida ezgu bir ramziy maʼno bor.

Aynan Prezidentimiz Ispaniyaga davlat tashrifi bilan borgan 2003 yilda Ispan elchisi Klavixoning Amir Temur huzuriga, 1403 yilda qilgan safariga roppa – rosa 600 – yil toʻldi . Shunday qilib Amir Temur davrida mamlakatlarimiz oʻrtasida samimiy doʻstlik aloqalari istiqolol davriga kelib Prezident I.Karimovning Ispaniyaga davlat tashrifi munosabati bilan qaytatdan tiklandi va toʻxtovsiz mustahkamlanib borib ajoyib samaralar bermoqda .

Bugun Klavixoning nomi va tarixiy xizmatlari nafaqat Ispaniyada , balki Oʻzbekistonda ham qaytadan baralla sado berib , chuqur hurmat – ehtiromga

¹ Oʻsha asar.4-bet.

sazovor bo'lmoqda. O'zbekiston va Ispaniya mutaxassislarining o'zaro hamkorligida bu ikki davlatning Klavixo davri va hozirgi kundagi hamkorlik aloqalari haqida yirik ko'rgazma tashkil etilib u Ispaniya poytaxti Madridda , vatanimiz poytaxti Toshkentda , Samarqandda va Shahrisabzda namoyish etilganligi fikrimiz bir dalilidir .

Istiqlolga erishgunimizga qadar Klavixoning Amir Temur haqidagi mashhur "Kundalik" asarini o'zbek tiliga o'girib , xalqimizga taqdim etish to'g'risida ham gap bo'lishi mumkin emas edi. Hukumron mustabid sho'ro tuzumi , sho'ro siyosati , mafkurasi – sohibqiron Amir Temurning tarixiy xizmatlari u yoqda tursin , hatto nomini eshitishni ham xushlamas edi . Buning oqibatida xalqimiz Klavixo asarining yevropa tillariga jumladan , rus tiliga qilingan tarjimalari to'g'risidagi ma'lumotlarini eshitishdan nariga o'tolmay keldi. To'g'ri , Klavixo kitobidan ayrim iqtiboslarni tarixchi olimlarning kitoblarida uchratamiz . Ammo bu iqtiboslar zinhor Amir Temurni anglash , tushunishga emas , balki uni qoralash , badnom etishdek maqsadlarga xizmat qilib keldi . Mana, ayrim dalillar.

Akademik V.V.Bartold o'zining "Temur saltanati " ("ЦарствованиеТемур") maqolasida yozadi : "Klavixo va Ibn Arabshohning hikoysalaridan xulosa qilish mumkinki ... xuddi Chingizxon kabi Temur o'z faoliyatini qarog'chilar to'dasining sardori sifatida boshlagan " (В.В.Бартольд , Сочинения , М.1964.Т. 2,37 – 62 бетлар) . Akademik A.Yakubovskiy o'zining "ТАМЕРЛАН . Эпоха.Личность.Деяние" kitobida Klavixo bitigidan Amir Temurning Samarqandagi Ko'ksaroy qasrida mavjud qurol ishlab chiqaruvchi ustaxonasiga oid so'zlarini ko'chirma qilib keltirib, undan shunday xulosa yasaydi: " Bu mo'g'ullar davriga xos korxon bo'lib, unda ekspulatsiyaning yarim qullik darajasidagi shakli hukm surgan ..."

Bu iqtibos so'zlarning ma'nosi alohoda sharhni talab qilmaydi. Ularda g'arazgo'y siyostga qul bo'lgan tadqiqotchilarning shu qadar g'arazli nuqtai nazari o'zini yaqqol ayon etib turibdi .

Klavixoning "Kundalik "nomasi ilk marta 1582 –yilda Sevilya shahrida Argote de Molina tomonidan "Xistoria del Grant Tamorlan"(“Buyuk Temurlan tarixi”) nomi ostida dunyo yuzini ko'rdi . Shu o'rinda, kitobning bunday nomlanishi alohida izohni taqazo etadi . Ishonchimiz komilki , Klavixoning o'zi hayot bo'lganinda Amir Temur haqidagi bitikning bunday nomlanishiga aslo rozi bo'lmas edi . Chunki, u o'z asarining boshidan oxirigacha Sohibqiron bobokalonimizni "Temurbek" , "Ulug' Amir" deb katta ehtirom bilan tilga olgan . Buning ustiga o'z asarining 71-bobida Klavixo shunday deb yozadi: Temurbekning asli ismi biz aytganimizday Temurlan emas, Temurbekdir. Chunki,

Temurbek o'z tilida "Temur podshoh" degani, podsho esa ularning tilida bek ... Uni tahqirlash ma'nosida "Temurlan" ya'ni, oqsoq Temur deb, ataydilar. Pirovardida, Klavixo o'z kitobini ham "Buyuk Temurbek tarixi" deb atashini tasavvur qilishimiz mumkin. "Temurbek" iborasi aynan Amir Temurning o'z vatanida, Turon zaminida keng tarqalganligi uchun ham Klavixo undan chekinmagan bo'lur edi.

Ispaniyada shundan keyin ushbu asar 1779 yil Amirola degan noshir tomonidan Kastiliya qirolligiga bag'ishlangan yilnomalar va memuarlar to'plamining uchunchi jildi ichida chop etildi. 1782 yilda esa Antiniyo Sancho ismli noshir Ispanlarga uni yana alohida kitob holida taqdim etdi. Nihoyat, 1943 yilda Madridda atoqli tarixchi olim Ferdinant Lopes Estrada tomonidan "Kundalik" ning Ispan tilidagi navbatdagi nashri amalga oshirildi. Qomusiy, tarixiy mazmunli bu asar tez orada Yevropada ham mashhur bo'lib ketdi.

Klavixo asari 1859 yilda Londonda K.Markxem tarjimasida ingliz tilida chiqdi. Ushbu tarjima "Kundalik"ning 1782 yildagi Antiniyo Sancho tomonidan 55 tayyorlangan Ispancha nashr manbaida amalga oshirildi. Biroq, bu tarjima keyinchalik taniqli ingliz tilshunos olimi G. Le Strenj tomonidan sifatsiz, deb topildi.

"Kundalik" ning xorijiy tildagi ikkinchi tarjimasini atoqli rus tilshunos olimi, akademik I.I. Sreznevskiy tomonidan ro'yobga chiqarildi. I.I. Sreznevskiy "Kundalik" ning har bir kun xotiralari bilan bog'liq qismlarini boblarga ajratib, ularni alohida nomlar bilan atadi, kitobga keng ko'lamli "Izoh" ni ilova etdi. Bu ruscha tarjima 1881 yilda Sank-Peterburgda nashr qilindi. I.I. Sreznevskiy kitob nomini belgilashda bevosita Klavixoning o'z fikri va qarashlariga tayangan. Uni "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403 – 1406)" deb atagan. Kitobning bunday nomi "Kundalik" ning jahondagi boshqa tillarga qilingan tarjimalariga ham asos qilib olingan.

Oradan 50 yil o'tib, 1928 yilda Le Strenj Klavixo asarini ingliz tiliga qaytadan o'girdi. Ushbu tarjima "Kundalik" ning 1782 yildagi ispancha nashriga hamda Le Strenjning o'zi "muvaqiyatli, ancha mukammal tarjima" deb e'tirof etgan I.I. Sreznevskiy ruscha tarjimasiga asoslanilgan holda bajarilgan.

1970-1971 yillarda Klavixo asarining Londonda K.Markxem tomonidan tayyorlangan inglizcha tarjimasini va I.I. Sreznevskiyning ruscha tarjimasini "Kundalik" ning ispancha asl matni bilan yonma-yon holatda yana bir marta nashr etildi. "Kundalik", shuningdek, Yaponiyada, Fransiyada, Rossiyada,

Argentinada, Turkiyada, Eronda bir necha marta qayta va qayta kitobxonlarga taqdim qilingan.¹

Asar eng so'ngi marta 1990 yilda I.S. Mirokova tarjimasida rus tilida Moskvadagi "Nauka" nashriyoti tomonidan bosmadan chiqarildi.

Nihoyat, o'tgan asrning ikkinchi yarmi 80 yillarida bu mashhur tarixiy yozma yodgorlikni ona tilimizga filologiya fanlari doktori, professor Ochil Tog'ayev (ruhlari shod bo'lsin, ustozning) o'g'irdi. Shu o'rinda xotiramizdagi kichik bir lavhani hurmatli mushtariylarga hikoya qilmoqchimiz. 1987 yilning yoz kunlaridan biri Ochil Tog'ayev kamina bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlayotgan "San'at" jurnali tahririyatiga keldi. O'zaro suhbatimiz paytida: "Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning bobokalonimiz Amir Temurga bag'ishlangan "Kundalik" nomasini tarjima qilmoqchiman, jurnalda berasizlarmi?" – dedi. Bu taklif bizlarni qiziqtirib qo'ydi. Ma'lumki "Kundalik"ning deyarli yarmi elchilar Amir Temur saltanatiga yetib kelishiga qadar bosib o'tgan yo'l taassurotlaridan iborat, Amir Temur va uning davlati to'g'risidagi hikoya kitobning ikkinchi yarmida beriladi.

Shunday qilib ushbu tarjima mamlakatimizda hurriyat shabadalari endi esa boshlagan jo'shqin bir davrda "San'at" jurnalining 1988 – 1990 - yillaridagi 15 ta sonida uzluksiz e'lon qilib borildi. Shundan keyin tarjimaning bevosita Amir Temur va uning saltanati to'g'risidagi yirik bir qismi akademik Bo'riboy Ahmedovning qisqacha muqaddima so'zi bilan "Amir Temur va Mirzo Ulug'bek – zamondoshlari xotirasida" (1996) to'plamida berildi.¹

Klavixo ushbu asari sahifalarida sahibqiron Amir Temur siymosi xuddi tirikday gavdalanib turadi. Buning sababi shundaki, Klavixo bevosita sahibqiron saroyida birmuncha muddat yashab, u bilan qayta va qayta ko'rishgan, yuzma-yuz muloqotda bo'lgan. Amir Temur hazratlarini turlicha sharoitlarida – saroy ayonlari, xorijiy elchilar, Samarqand ahli va saltanat amirlari bilan uchrashuvlar, Temuriy shahzodalar va malikalar bilan munosabatlar vaziyatida kuzatgan "Kundalik" da muallifning bu ko'rgan kechirganlari shaxsiy taassurotlari, fikr o'ylari to'la o'z ifodasini topgan. Amir Temur siymosiga va uning saltanatidagi o'ziga xos hayotga qiziqqan Yer yuzidagi barcha kishilar Klavixo kundaliknomasidan o'zi uchun boy va qiziqarli ma'lumotlarni topishi tabiiy.

Kitobning ikkinchi bir o'ziga xos xususiyati – uning kundalik tartibida bitilganligidir. "Kundalik" bo'lganda ham, betakror mazmun va mohiyatli kundalikdir. Ya'ni, u biron tarixchi olim yoki yozuvchiining emas, balki aynan o'z qirolining alohida topshiriq va dasturiy ko'rsatmalari bilan yo'lga tushgan

¹ Amir Temur jahon tarixida.T.,2001.205-bet

¹ Amir Temur va Mirzo Ulug'bek zamondoshlari xotirasida.T.,1996, 10-bet.

elchining nuqtai nazarini , fikr – o'ylarini va kuzatishlarini o'z sahifalarida mujassam etgan . Hisobot , hujjat , ma'lumotnoma tarzidagi asardir . Shu bilan birga, ushbu hisobotnoma o'z davrining yuksak o'qimishli , bilimdon , mustaqil , sinchkov kuzatish salohiyatga ega ziyoli shaxsining jonli maroqli hikoyalari va sarguzashtlari bilan nurlanib turadi. Buning ustiga , uning aynan Yevropalik elchi ekanligi qalamga oldindan barcha manzaralarga , voqea hodisalarga , Amir Temur shaxsiga va saltanatidagi tartib qoidalarga o'zgacha yondashuvlarga yaqqol sezilib turadi.

Klavixo boshliq guruhning Amir Temur huzuriga qilgan elchilik sayohati juda uzoq, xavf –xatar va mashaqqatlar bilan to'la safar bo'ldi . Shni ham aytish kerakki, o'shanda Klavixo bilan birga Bobil (Misr) va Turkiya sultoning elchilari ham Samarqandga keldilar.

“Kundalik”da o'sha vaqtlarda Amir Temur qo'l ostidagi mamlakatlar va shaharlarning umumiy ahvoli , aholining kun kechirishi , Temur va yaqinlari tashabbusi bilan barpo etilgan binolar qasrlar , masjidlar , madrasalar, xonaqohlar, savdo rastalari , do'konlar , ustaxonalar ; Temuriylar davlatining Xitoy , Hindiston , Oltin O'rda (Klavixo uni “Tatariston” deb ataydi),Mo'g'uliston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va savdo aloqalari ; Amir Temur saroyida amalda bo'lgan tartib qoidalar va nihoyat Amir Temurning xotinlari hamda ularning mamlakat ijtimoiy – siyosiy hayotida tutgan o'rni haqida etiborga molik ma'lumotlar keltirilgan bu ma'lumotlar shubhasiz , vatanimizning o'sha vaqtlardagi ijtimoiy – siyosiy tarixini , ota- bobolarimizning turmush tarzini o'rganishda muhim tarixiy manbalardan biri bo'lishi turgan gap .

So'zimizning isboti uchun bir necha misol keltiramiz :

Samarqandning vodiylari haqida : “ bu yurt don – dun , may , meva –cheva , parranda go'shti , (boshqa) har xil go'sht , qo'yinki , hamma narsaga boydir ...Bir juft semiz qo'yning narxi 1 dukat ”

Katta xiyobon va savdo rastalari haqida : “ Samarqand shahrida har yili Xitoy , Hindiston , Tatariston (Oltin O'rda) va boshqa mamlakatlardan , shuningdek benihoyat boy Samarqand saltanatining o'zidan keltirilgan mollar sotiladi. Shaharga keltirilgan mollarni safda tartib bilan joylashtirib sotilgan keng joy (shu paytgacha) yo'q edi . Podsho ikki tarafida qator do'konlar o'rnatilgan savdo rastasidan iborat ko'cha o'tkazishni buyurdi .Mazkur ko'cha shaharning bir chekkasidan boshlanib qoq o'rtasidan o'tib chiqishi lozim edi. Podsho bu ishni ikki mirzosiga (ikki amiriga bo'lsa kerak-M.S.) topshirib , ular kechay-u kunduz (tinmay) mehanat qildilar . Yo'lda tushgan uylar kimniki bo'lishidan qat'iy nazar ,beto'xtov buzildi... Ko'chaning ikki tarafida do'konlar o'rnatishdi , har bir do'kon oldida marmar bilan qoplangan baland kursilar o'rnatildi . Har bir do'kon ikkita

xonadan iborat edi . Ko'chani tepasi gumbaz shaklida yopilgan bo'lib , (tepasida) yorug'lik tushib turadigan tuynukchaklar qo'yilgan ”.

“ Shu yili (1404 –yili – M.S.) iyun oyida Xonbaliq (Xitoy poytaxti Pekinning tarixiy nomlaridan biri , Klavixo davrida ham , aftidan uXonbaliq deb atalgan bo'lsa kerak – M.S .) shahridan qariyb800 tuyadan tashkil topgan savdo karvoni Samarqanddan keldi ”

O'rdabozor tasviri : (Katta to'y munosabati bilan) Podsho “ Samarqand shahrining savdo ahli : sarroflar , chitfurushlar javohir va boshqa turli tuman mollar bilan savdo qiluvchilar , oshpazlar , qassoblar , novvoylar , tikuvchilar , kavushdo'zlar va shahardagi boshqa barcha hunarmandlar podsho o'rdasi joylashgan yalanglikka chiqib va chodir tikib savdo qilsinlar , har bir kosib qarorgohlar bo'ylab kezib , o'yin – kulgi bilan odamlarning bahri dilini ochsinlar ” , - deb buyurdi . Shundan keyin barcha tijorat ahli shahardan chiqib , podsho qarorgohi atrofiga joylashdilar . Har bir hunarmand tartib bilan alohida – alohida rasta hosil qilib , o'yin - kulgilar uyushtirishib , qarorgoh bo'ylab aylandilar ”.

Ko'ksaroy qasri va undagi podshoga tegishli qurol ishlab chiqaruvchi ustaxona haqida : “ Shahar chetida bir qasr bo'lib ... tevarak atrofi suv oqib turgan xandak bilan o'ralgan , qasr yo'l ab bo'lmaydigan istehkomga aylangan edi. Qasrda podshoning xazinasini saqlanar, shu sababdan qoziyu quzzot va uning mulozimlaridan boshqa hech kim kirolmas edi . Bu yerga podshoning farmoyishiga binoan ,bir mingga yaqin hunarmand asirlar joylashtirilgan . Ular saltanat uchun yil bo'yi sovut , dubulg'a , kamon , nayza yasaydilar”.

Amir Temurning o'zi bilan olib yuradigan ko'chma masjidi : “ Elchilarni ... saroparda ichida o'rnatilgan yog'och uy oldiga boshlab kirdilar . Bu yuksak imoratga zinopaya orqali chiqiladi . Uning tevarak – atrofi yog'och dahliz va oynavand ayvon bilan o'ralgan edi . Boshdan – oyoq zarhal va havorang bo'yoqlar bilan naqshlangan , bino shunday qurilgan ediki , kerak bo'lganda , uni bo'lak – bo'laklarga ajratib taxlab qo'ysa (ham)”bo'ladi .Bu – podsho ibodat qiladigan machit bo'lib, uni (Amir Temur)safarda o'zi bilan birga olib yurgan .

Mahalliy xalqning (uni Klavixo “ Chig'atoyilar ” deb ataydi – M.S.) turmush tarzi haqida : “ U – mehnatsevar , mohir chavandoz , kamon otuvchi mergan , umuman urushda sabot – matonatli xalq . U boriga qanoat qilib , nonsiz (birgina) sut va go'sht bilan kun kechiraveradigan , go'shtlik va go'shtsiz ovqat bilan ham tirikchilik qilishga o'rgangan xalq . Issiq va sovuqda , ochlik va tashnalikka jahondagi boshqa ellardan sabotliroq va chidamliroq xalq . Borida go'shtni haddan ortiq istemol qiladi , yo'g'ida suvga qatiq qo'shib qaynatib ichish bilan kifoyatlanadi”.

Amir Temur saltanatidagi majburiyatlardan biri : “ Temurbek otlari va qo’ylarini o’z yasovullaridan biriga bir ming , boshqasiga o’ng ming boshini suruv qilib , saqlash uchun bo’lib bergan . Podsho talab qilganida , yasovullar suruvlarni qaytarolmagan yoki tuyog’ini mo’ljaldagidan kamaytirib 59 qaytargan taqdirda podsho hech qanday tovon to’lash shartlariga ko’nmaydi , borini oladi-yu , lekin gunohkorlarni qatlgaga buyuradi .”

Amir Temur saroyida ayollarning haq-huquqi : Klavixo bayon etishicha , 1404 yilning 23 sentabrida podsho Bog’I Dilkusho (yana bir) katta bazm berib, elchilarni ham unga taklif qiladi . To’yga ko’p mehmonlar kelishadi ... Rosa o’yin – kulgi , xursandchilik bo’ladi . Podshoning xotinlari , avvalgi to’ylardagi singari yasan – tusan kiyinishib bazmda hozir bo’ladilar, erkaklar bilan birga o’yin – kulgi qiladilar . 118 – bobda , Xonzoda (begin) huzuridagi bazm tasvirida ham sohibqiron saltanatida ayollarning qadri qimmatini behad baland tutilishi haqqoniy hikoya qilingan...

“Kundalik”da shunga o’xshash qiziqarli ma’lumotlar juda ko’p .

Bundan tashqari , “Kundalik”da o’rta asrlardagi Yevropa va Osiyodagi hayot manzaralari , turli xalqlarning o’ziga xos urf – odatlari , an’analari , rivoyatlari , tartib – qoidalar , o’sha davr geografiyasi , iqlimi , dengizlar , orollar , qumlik sahrolar , poyonsiz dashtlar , tog’lar , ko’llar , obod va xaroba shaharlar... to’g’risida g’oyatda rang-barang keng qamrovli , o’ziga xos , noyob ma’lumotlar berilgan . Xuddi shunday ma’lumot boyliklariga ko’ra , ushbu kitob bizga zamondosh bo’lgan turli yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotchilar uchun bebaho manba bo’la oladi . Undan siyosatchilar ham , iqtisodchilaru huquqshunoslar ham , tabiatshunoslaru geograflar ham , yozuvchilaru etnograflar ... ham o’zlari uchun o’rta asrlarga oid qomusiy ma’lumot va kuzatishlarni topa oladilar.¹

Shu bilan birga , Klavixoning bitigida ayrim noaniqliklar , bahsli o’rinlar ham ko’zga tashlanadi.

“ Aytishlaricha – deb yozadi Klavixo , - Temurbek o’zining to’rt-besh xizmatkorlari bilan qo’shni xonadonlarning bir kuni qo’yini , ikkinchi kuni sigirini tortib ola boshlaydi ... Ba’zan bazmga berilib ketib , o’g’irlangan qo’ylar bilan ularni mehmon qilardi . Ba’zan jasurligi , oliy janoblighi tutib ketib , bor narsasini o’z odamlariga sidqidildan bo’lib berganligi tufayli , uning atrofiga ko’p odamlar to’plana boshlaydi . Oxiri , uning otliqlari 300 ga yetdi . Shundan keyin u o’z otliqlari bilan uzoqlarga borib o’zi va odamlariga kerak bo’lgan narsalarni talash va o’g’irlash bilan mashg’ul bo’ldi ; yo’llarga chiqib savdogarlarni ham

¹ D.Obidjonova.Sohibqiron davri ning xorijiy tadqiqotchilari.//1995,N94,22-bet.

talay boshlaydi”. Aytishimiz kerakki , mavjud tarixiy asarlarda Amir Temurning o’g’ri va yo’lto’sar bo’lganligi haqida hech bir ma’lumot uchramaydi.

Ayniqsa , o’z hukmronligi davrida saltanati doirasida savdo yo’llarini va savdogarlarni yo’lto’sarlardan qat’iy himoya qilgan Amir Temur yigitlik davrida “ savdogarlarni talagani ” sohibqironga yaqqol tuxmatdir . Yana bir dalil : Shomiy “ Zafarnoma ” asarida Amir Temur o’z navkarlaridan bir nechtasi savdogarlarga hujum qilganligi uchun qattiq koyiganligini va mollarni qaytartirganligini yozib qoldirgan (Shomiy “ Zafarnoma ” “O’zbekiston” nashriyoti , 1996 yil 65 – bet) . Klavixo esa bu uzun – quloq gaplarni kimlardandir eshitganligini aytadi . “Kundalik”da shu tarzda , Klavixo bevosita o’zi ko’rgan - bilganlaridan tashqari ancha - buncha shunga o’xshash , boshqalardan eshitgan , og’izda yurgan , ammo yaxshi tekshirib , haqiqat qilinmagan gaplarga ham o’rin bergan .

“Kundalik” da , 107 – bobda Chig’atoyning o’limi va 147 – bobda Xalil Sultonning Amir Temur vafot qilgan kunlaridagi ahvoli haqida aytilgan gaplar ham haqiqatdan yiroqdir . Masalan , Klavixoning aytishicha , Chig’atoy Samarqandda mahalliy xalq qo’li bilan o’ldirilgan . Xalil Sulton bo’lsa Amir Temur vafot qilgan kunlari Samarqandda bo’lgan emish ... Aslida , bunday emas . Chig’atoy o’z O’rdasida , Il daryosi bo’yida 1242 – yili vafot etgan . (Bartold V.V “Chagatayxan”.Asarlar , T. 11 . 2 – qism , Moskva , 1964 , 540 - bet) Xalil Sulton esa Amir Temur vafot etgan kuni Toshkentda bo’lgan .

“Kundalik” da , bayon etilgan Chingizxon va uning o’g’illari hamda, Xitoy davlati to’g’risidagi ma’lumotlar ham tarixiy haqiqatdan ko’ra , xalq orasida yurgan mish – mishlarga asoslangandir.

Asarda uchragan yana bir muammo , bu – kishi va joy nomlarining yozilishidagi chalkashliklardir . Albatta , Klavixoday muhojir odam uchun mahalliy atamalar va so’zlarni to’g’ri talaffuz qilish juda qiyin .“Kundalik” da , esa tilga olingan Amirat – Murod ekanligini , Xoxarok – Shohruh Mirzo , Karil sultan – Xalil Sulton , Kirmonali – Manuil Paleolog , Karamish – To’xtamish , Miaxa mirassa – Mironshoh Mirzo ekanligini; Anguri - Anqara , Baldat – Bog’dod , Baubertel – Bovard , Kanbalek – Xonbaliq , Korras – Araks , Orasan – Xuroson ekanligini anglash mumkin va buni tarjimon to’g’ri aniqlay bilgan . Lekin “Kundalik” da Buamo, Jagaro kabi joy nomlari ham borki , ularni aniqlash ancha mushkul . Bu joy nomlarini aniqlash Klavixo asri bo’yicha tadqiqot bilan shug’ullanuvchilar oldida hamon vazifa bo’lib turibd.

Klavixoning Amir Temur saroyiga sayohati “Kundaligi” bunday noaniqliklaridan hamda uning ayrim o’rinlarida bahsli talqin va qarashlar mavjudligidan qat’iy nazar , o’zining tarixan aniq va muhim ma’lumotlarga 61 boyligiga ko’ra, umuminsoniyat tarixining doimo tirik yodgorliklaridan biri

bo'lib qolaveradi . Amir Temur siymosi eslanar ekan , ushbu asarni ham albatta eslashadi . Jumladan , mustaqilligimiz sharofati bilan uni o'z ona tilida bosh-oyoqlik to'liq nashr sifatida o'qishga muyassar bo'layotgan xalqimizning hozirgi avlodlari Klavixodan alohida minnatdor bo'lishi shak – shubhasizdir. Ushbu kitob tarixiy qarashimizni chuqurlashtiradi . Sohibqiron Amir Temur va uning saltanatida hukm surgan betakror ijtimoiy – siyosiy hayot hamda bobokalonimizning o'z shaxsiyati to'g'risidagi tasavvurlarimizga nodir aniqliklarni kiritadi . Bizni buyuk bobokalonimizga , Amir Temurni bizga ruhan va ma`nan yanada yaqinlashtiradi .

Amir Temur - buyuk milliy dahodir .Prezidentimiz Islom Karimov bu buyuk siymoga doir ma'ruzalaridan birida aytganlariday : “Amir Temurni anglash – o'zimizni anglashdir ”. Klavixo asari shu ezgu maqsadga xizmat qiladigan bebaho manbadir .

Xulosa

Istiqlolga erishganimizdan so`ng biz tarixiy adolatni qaror toptirish, xalqimizning toptalib kelgan milliy g`ururini yuksaltirish maqsadida Sohibqiron Amir Temur bobomizning nafaqat muborak nomi, boy merosi va xotirasini, ayni paytda tarixiy siymosini ham tiklashga qaror qildik.

Bugun Sharqda tengi yo`q sarkarda mustaqillik, istiqlol sharofati bilan o`z vataniga qaytdi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o`z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o`ringa qo`yish imkonidan mahrum edi. Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo`yoq bilan o`chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g`urur tuyg`usini yo`qotish, uni qaramlikga, tobelikka ko`ndirish edi. Mustabid tuzum davrida bu masalada g`arazli siyosat olib borilgani, asossiz ravishda bobomiz jaholat va yovuzlik timsoli sifatida ko`rsatib kelingani bugun hech kimga sir emas. Nega deganda, mustabid tuzum tarixiy haqiqatni namoyon etishdan, bizning milliy o`zligimizni anglashimizdan mutlaqo manfaatdor emasdi.¹

Lekin, o`zbek xalqi o`z ajdodlarini, o`z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to`rida saqladi. “Temuriylar davri tarixshunosligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishimni tayorlash jarayonida Sohibqiron bobomiz Amir Temur va Temuriylar davri tarixi yoritilgan qimmatli, nodir manbalarni bo`lajak tarixchi sifatida tarixshunoslik tamoyillari asosida o`rganib tahlil qilishga harakat qildim. Zero, manbalar o`tmishning o`lmas elchilaridir. Biroq, ushbu manbalarni tarixning ilmiylik, xolislik, tarixiylik qonuniyatlari asosida o`rganib, tahlil qilish, ulardagi voqea va hodisalarni qiyoslab odilona xulosa chiqarish biz bo`lajak tarixchilarning ma`suliyatli vazifamizdir.

Prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov 1996 yil 24 aprelda Yunesko qarorgohidagi “Temuriylar davrida ilm – fan, madaniyat va maorifning gullab –

¹ Islom.Karimov.Amir Temur - faxrimiz g`ururimiz. Asarlar 5-jild, 180-bet.

yashnashi “ ko`rgazmasining ochilish marosimida so`zlagan nutqida: “Marifatli Movarounnahr ruhi Temuriylar davrida fan va san`atning gullab – yashnagani Evropada uyg`onish jarayoniga hayotbaxsh ta`sir etganini, umumjahon taraqqiyotiga ko`maklashganini anglab faxrlanamiz” – deydi.

Istiqlol yillari ma`naviyat manbalariga, milliy ildizlarimizga qaytish, tarixiy xotirani, madaniyat va ma`naviyatni qayta tiklash yillari bo`ldi. Zero, yurtboshimiz “Ma`naviyatni tiklashi, tug`ilib o`sgan yurtida o`zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko`tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak”, deb bejiz ta`kidlamaganlar. ¹

Sohibqiron Amir Temur hazratlari – millatimizning suyangan tog`I, xalqimizning abadiy faxri va g`ururidir. U Turonzaminni mo`g`ullar istilosi, asoratidan ozod etdi. Mamlakat va xalq daxlsizligini, tinchligi va osoyishtaligini, obodlikda va farovonlikda rivojlanishini to`liq va ishonchli kafolatlay oladigan markazlashgan qudratli davlatni vujudga keltirdi, uning amru irodasi ostida bu erda hayot har taraflama gullab – yashnadi. Turonzamin Amir Temur davrida Buyuk Ipak yo`lining qaynoq, gavjum, fayzli – barakali go`shalaridan biriga aylandi. Sohibqiron saltanati er yuzidagi ko`pgina davlatlar va ellar bilan siyosiy – diplomatik, iqtisodiy – savdo va madaniy aloqalar o`rnatdi. Shu boisdan ham, Amir Temur va Temuriylar davri dunyo ilmiy tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tarixidagi buyuk yuksalish davri, deb baholab kelinmoqda.

Amir Temur – jahon tarixidagi buyuk siymolardan biri. O`tgan asrlar mobaynida jahonning ellikdan ortiq davlatlarida Amir Temur mavzuida behad ko`p tarixiy, adabiy va san`at asarlari yaratilgan. Ularni bir joyga to`plashning imkoni bo`lsa, dunyoning eng mahobatli kutubxonalaridan biri dunyoga kelar edi. Amir Temurning insoniyat oldidagi bebaho xizmatlari asirlar o`tsada bukilmas, sinmas haqiqatdir. Bu haqiqatlar XX asr oxirida xalqimiz mustaqillikka erishgach, milliy tariximizga nisbatan adolatli qarash va uni adolatli idrok etish imkoniyati vujudga kelgach, ro`yi – rost yuzaga chiqa boshladi. Yurt boshimiz istiqlolning ilk kunlaridanoq xalqimizning milliy o`zligini tiklash masalasini davlat siyosati darajasiga ko`tardi. Jumladan, milliy tariximizga adolatli yondashuv, buyuk milliy siymolarimizning hurmati va ehtiromini o`rniga qo`yish borasida davlatimiz raxbari dadil qadamlarni qo`ydi.

Bugun O`zbekistonda sohibqironning millatimiz hamda umuminsoniyat tarixidagi faxrli va salobatli o`rnini teran idrok etgan yangi avlod dunyoga keldi. Ilmiy – tarixiy tadqiqotchilikda va ta`lim – tarbiya sohasida Amir Temur dahosini zamonaviy tushunish tobora takomillashmoqda. Amir Temur va Temuriylar davri tarixi yoritilgan o`z davrining noyob, qimmatli tarixiy manbalarini chuqur tahlil etib o`rganish, xolisona, adolatli tarixiy xulosalarga kelish biz bo`lajak

¹ Islom. Kari mov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.T.,1998,38-bet.

tarixchilarning muqaddas burchimizdir. Zero, haqqoniy tarixni bilmasdan turib o`zlikni anglash mumkin emas. Madomiki, o`z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni engib bo`lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni anashu tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

I.Prezident asarlari:

- I.1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T., 1998.
- I.2. Karimov I. Amir Temur haqida so`z. T., 1996y.
- I.3. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. Asarlar. 5-jild, T., 1997y.
- I.4. Karimov I. Amir Temur – faxrimiz, g`ururimiz. T., 1996y.
- I.5. Karimov I. Adolatli jamiyat sari. T., 1998y.
- I.6. Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. T., 2008y.

II. Asosiy adabiyotlar:

- II.1. Nizomiddin Shomiy. "Zafarnoma" T., 1996y.
- II.2. Sharafiddin ali Yazdiy. "Zafarnoma" T., 1997y.
- II.3. Klavixo. "Kundalik" T., 2010y.
- II.4. Ibn Arabshoh. "Ajoyib al – maqdur fi tarixi Taymur". (Amir Temur tarixi) 1-2j. T., 1992y.
- II.5. "Temur Tuzuklari", T., 1991y.
- II.6. Z.M. Bobur. "Boburnoma" T., 2008y.
- II.7. H. Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., 1990y.
- II.8. Amir Temur Jahon tarixida. T., 2001y.
- II.9. Azamat Ziyo. O`zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000y.
- II.10. Axmedov B. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T., 1991y.
- II.11. Bo`riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. T., 1997y.

II.12.Mo`minov I.Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli.T.,1968y.

II.13.Madraximov A. Fuzailova G.Manbashunoslik.T.,2008y.

17.O`zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari.T.,2001y.

20.Temur vaUlug`bek davri tarixi.T.,1996y.

21.Temuriylar bunyodkorligi davri manbalarida.T.,1997y.

Davriy matbuot:

23.Uvatov U.Amir Temur bilgan fozillar.Tafakkur//2006y. №4

24.Ziyoyev A. Temuriylar davri Hindiston tarixnavisligi.O`zbekistonda ijtimoiy fanlar.//1996y. №2

25.Obidjonova D. Sohibqiron davrining xorijiy tadqiqotchilari."Fan va turmush" 1995y. №4

